

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI

5120300 – Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi
bo'yicha

bakalavr darajasini olish uchun

401- TARIX guruhi talabasi Raxmanova Shirin Kutlimuratovnaning

“O'zbekiston tarixi: antik davr tarixi bo'yicha moddiy va yozma
manbalarning qiyosiy tahlili va uning natijalari”
mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:



t.f.n.dots. Abdullayev O'tkir Ismoilovich

URGANCH-2015

Bitiruv-malakaviy ishining titul varag'i

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix fakulteti
(fakultet nomi)

Tarix kafedrasi
(kafedra nomi)

**Mavzu: "O'zbekiston tarixi: antik davr tarixi bo'yicha moddiy va yozma
manbalarning qiyosiy tahlili va uning natijalari"**

(bitiruv malakaviy ish mavzusining nomi)

Bajaruvchi:



Raxmanova Shirin Kutlimuratovna

Rahbar:



t.f.n.dots. Abdullayev O'tkir Ismoilovich

Urganch- 2015

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix fakulteti

(fakultet nomi)

Tarix kafedrası

(kafedra nomi)

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA

TOPSHIRIQLAR REJASI:

1. Talaba **Raxmanova Shirin Kutlimuratovnaga**

Universitet rektorining 2014-yil 15-noyabrdagi «188»-sonli T & 1 buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun **“O'zbekiston tarixi: antik davr tarixi bo'yicha moddiy va yozma manbalarning qiyosiy tahlili va uning natijalari”** mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan *t.f.n.dots. Abdullayev O'* bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: *Kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar, taqdimotdan iborat*

4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar **Prezident asarlari; Ilmiy adabiyotlar:**

1. Каримов И.А. «Тарихий хотирасиз келажак йўк». – Тошкент, «Шарк», 1998.

2. Каримов И.А. «Юксак маънавият – енгилмас куч». – Тошкент, «Маънавият», 2008.

3. Каримов И.А. Танланган асарлар. –Т. 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12,13,14,15,16, 17. – Тошкент, «Ўзбекистон», 1990-2009.

4. Каримов И.А. «Биз бағри кенг ва ҳамдард халқмиз».- “Андижон нашриёт матбаа” Маъсулияти чекланган жамият. 2010.

5. Каримов И.А. “Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида”- Тошкент. «Ўзбекистон», 2011.
6. “Avesto”. “Yasht” kitobi. O’zbek tiliga M. Ishoqov ilmiy-izohli tarjimalari.- Toshkent, “Sharq”, 2001.
7. Azamat Ziyo. “O’zbek davlatchiligi tarixi”- Toshkent, “Sharq”,2000.
8. Eshov B.J. “O’rta Osiyo qadimgi shaharlari tarixi”. O’quv qo’llanma.-Toshkent, 2006.
9. Eshov B.J. “Qadimgi O’rta Osiyo shaharlari tarixi”. Darslik.-Toshkent, Fan va texnologiya, 2008.
- 10.Eshov B.J. “O’zbekiston davlatchiligi tarixi” O’quv qo’llanma.-Toshkent, Ma’rifat, 2009.

5. Bitiruv malakaviy ishga *jadval, taqdimot ilova qilinadi.*

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

<i>№</i>	<i>Bajarilgan ishning mazmuni</i>	<i>Bajarish muddati</i>
1	Bitiruv malakaviy ish mavzusini tanlash va adabiyotlar ro’yhatini tuzish.	04.12.2014
2	Adabiyotlar bilan tanishish va bitiruv malakaviy ishi rejasini tuzish	11.12.2014
3	Mavzuning birinchi bobini tashkil etuvchi: 1.1. Antik davr tarixining yozma manbalarda aks etishi.	15.01.2015
4	1.2. Antik davr tarixining arxeologik jihatdan o’rganilishi.	15.01.2015
5	2.1. Antik davr siyosiy tarixining qiyosiy	22.01.2015

	tahlili.	
6	2.2. Antik davrda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning qiyosiy tahlili.	22.01.2015
7	Bitiruv malakaviy ishining kirish va xulosa qismini yozib tamomlash.	19.02.2015
8	Ilmiy rahbar tavsiyanomasi va taqrizchi domlaga yozgan ishni ko'rsatish, hamda xato va kamchiliklarini to'g'irlagan holda taqriz yozdirib olish.	Aprel, May oyining birinchi, ikkinchi o'n kunligi
9	Ilova va taqdimot ishini tayyorlash va bitiruv malakaviy ishining rahbar tavsiyasiga ko'ra himoyasiga tayyorlanish.	May uchinchi o'n kunligi va iyun oyi birinchi o'n kunligi

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARINING MULOHAZALARI

Talaba: Raxmanova Shirin Kutlimuratovna

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: uchun **“O'zbekiston tarixi: antik davr tarixi bo'yicha moddiy va yozma manbalarining qiyosiy tahlili va uning natijalari”**

Bitiruv malakaviy ish xajmi: Kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, xulosa, adabiyotlar ro'yhati, taqdimot.

Tushuntirish qismi 2 ta bob, 4 ta paragrafdan iborat

Ilovalar soni:

Mavzuning dolzarbligi. Qadimgi davrlardan boshlab O'rta Osiyo xalqlarining ajdodlari o'zaro aloqadorlik asosida rivojlanib, turli qadimgi davlatlarning umumiy hududlarida birgalikda istiqomat qilganlar. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” asarida “Har qanday sivilizatsiya ko'pdan-ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta'sirining mahsulidir”, deya ta'kidlagan edi¹.

Jahon tarixshunosligida shaharlar tarixi masalasi haqida ko'plab nazariyalar mavjud. Bu O'rta Osiyo xalqlari shaharsozlik tarixiga ham mansub bo'lib, mazkur tadqiqotning asosiy mazmuni antik davr shaharsozligi misolida ushbu muammoning o'rganilish darajasi hamda holati. Yoritishning ilk qadamlari boshlab O'rta Osiyoning antik davr tarixiga, shu jumladan shaharsozlik tarixiga tegishli ilk yozma manbalar o'rganilib, tahlil qilina boshlandi va shu asosda mintaqadagi antik shaharsozlik masalasini yoritish borasida dastlabki qadamlar tashlandi. Ammo yozma ma'lumotlarning kamligi tufayli o'sha davrda (asosan G'arb tarixshunosligida) mavzuni yetarli darajada o'rganishning imkoni bo'lmagan. 50-60-yillariga kelib, mintaqaning turli hududlarida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlarni yozma

¹ Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: SHarq, 1998. – B. 21.

manbalardagi ma'lumotlar bilan taqqoslash imkoniyati yuzaga keldi. Shunga qaramasdan O'rta Osiyoning antik davr shaharsozligi mavzusi mahalliy xalqlarning milliy davlatchiligi tarixi sifatida talqin etilmadi. O'zbekiston tarixida O'rta Osiyoning antik davr shaharsozligi muammosi masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tarix fanida yetarli darajada o'z aksini topmagan.

Shuningdek, mazkur masala tarixining o'rganilishi natijalari O'rta Osiyo tarixshunosligida umumlashtirilmagan, mavjud yondashuvlar va asosiy nazariyalar ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada tanqidiy tahlil qilinmagan. Mazkur tadqiqot O'rta Osiyoning antik davr shaharsozligi tarixi to'g'risida to'plangan ma'lumotlarni, mavjud ilmiy yondashuvlarni, fikr va xulosalarni, mavzuning o'rganilishi natijalarini tarixshunoslik nuqtai nazaridan umumlashtirib, yaxlit tadqiq etuvchi dastlabki tadqiqot bo'lib, bu dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O'rta Osiyo tarixini xolis, haqqoniy yoritish maqsadida mintaqa antik shaharsozligi masalasiga oid turli g'oyalarni, jumladan, ijobiy, xolis va aksincha, siyosiy ko'zbo'yamachilik maqsadlariga yo'naltirilgan biryoqlama, noxolis, sub'ektiv ilmiy nazariyalarni o'rganish, ularga ilmiy baho berish dolzarb ahamiyatga ega.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi. *Talaba Raxmanova Shirin 4 yil davomida o'z mahoratini, qobiliyatini ishga solib tarixiy bilimlarni egallashga harakat qildi. Kelajakda u yaxshi mutaxassis va pedagog bo'lishi mumkin.*

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari. *Raxmanova Shirin o'ziga topshirilgan mustaqil vazifalarni a'lo darajada uddalay oldi. U ishni yozish davomida asosiy manbalardan, ilmiy adabiyotlardan, Prezident asarlaridan Internet saytlaridan unumli foydalana oldi. U antik davr tarixiga oid manbalarning qiyosiy tahlilini o'rgandi. Talaba tartibli, alochi va unda muomala madaniyati yaxshi shakllangan.*

5	2.1. Antik davr siyosiy tarixining qiyosiy tahlili.	22.01.2015
6	2.2. Antik davrda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning qiyosiy tahlili.	22.01.2015
7	Bitiruv malakaviy ishining kirish va xulosa qismini yozib tamomlash.	19.02.2015
8	Ilmiy rahbar tavsiyanomasi va taqrizchi domlaga yozgan ishni ko'rsatish, hamda xato va kamchiliklarini to'g'irlagan holda taqriz yozdirib olish.	Aprel, May oyining birinchi, ikkinchi o'n kunligi
9	Ilova va taqdimot ishini tayyorlash va bitiruv malakaviy ishining rahbar tavsiyasiga ko'ra himoyasiga tayyorlanish.	May uchinchi o'n kunligi va iyun oyi birinchi o'n kunligi

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

Bajaruvchi talaba:

:

2015 yil « 1 » iyun

t.f.n dots. Abdullayev O'. I

Raxmanova Sh. K

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2014 yil 28-noyabrda tasdiqlandi.

(« 7 »- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri:

t.f.n.dots. Abdullayev.T.P

(imzo)

Urganch davlat universiteti

Tarix fakulteti

5120300 - Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi

Raxmanova Shirin Kutlimuratovnaning

Bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi “O'zbekiston tarixi: antik davr tarixi bo'yicha moddiy va yozma manbalarning qiyosiy tahlili va uning natijalari”.

Raxmanova Shirin Kutlimuratovna

Malakaviy ishning hajmi 14283 so'zdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 56 sahifadan iborat

b) ilovalar soni:

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi Mavzuning dolzarbligi to'la yoritilgan

Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati *Talablar darajasida bajarilgan*

Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi, **Prezident asarlari; Ilmiy adabiyotlar:**

Каримов И.А. «Тарихий хотирасиз келажак йўк », Каримов И.А. «Юксак маънавият – енгилмас куч», Каримов И.А. «Биз бағри кенг ва ҳамдард халқмиз», “Avesto”. “Yasht” kitobi, Azamat Ziyo. “O'zbek davlatchiligi tarixi”, Eshov B.J. “O'rta Osiyo qadimgi shaharlari tarixi”, “Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi”, “O'zbekiston davlatchiligi tarixi”, “Svilizatsiya tizimida ilk shaharlar”, “Qadimgi davlatchilik va urbanizatsiya”, Murtazayeva R.X. va boshqalar. “O'zbekiston tarixi”, Muhammadjonov A. “Qadimgi Buxoro”, “Qadimgi Toshkent”, Sagdullayev A. “Qadimgi O'rta Osiyo tarixi”, Sagdullayev A. va boshqalar. “O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti”, Shoniyoov K. “O'zbek xalqining shakllanish jarayoni”, asarlari va boshqalardan olinadi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari *Bitiruv malakaviy ishi yangi adabiyotlar asosida milliy qadriyatlarimiz, mustaqillik mafkurasiga asosan, real va tarixga xolisona yondashgan tarzda ijobiy yoritilganligi ishning ijobiy qismini tashkil etadi.*

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi *Bitiruv malakaviy ish hajmi, mohiyati va mazmuni jihatdan DTS va DAK talablariga to'la javob beradi.*

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

t.f.n.dots **Abdullayev.O'.I.**

2015 yil «___» iyun



Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi Bitiruv malakaviy ishi ilmiy xulosalarga asoslangan, ilmiy terminlardan ijobiy tarzda foydalanilgan. Uslubiy jihatdan ta'lim talablariga javob beradi. Prezentatsiyalar a'lo darajada ishlangan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari Bitiruv malakaviy ishi o'zbek tilida, gramatik va orfagrafik xatolardan holi tarzda, zarur manba adabiyotlardan to'g'ri foydalanib yozilgan. Uning kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan. Boblar va ulardagi paragraflar o'ziga mos tarzda ilmiy jihatdan yoritilgan. Ko'chirmalardan to'g'ri foydalanilgan. U DAK talablariga javob beradi. Talabaning ilmiy ishidan referat, mustaqil ish va kurs ishlari, maqola yozishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar Bitiruv malakaviy ishida bazi bir juziy kamchiliklar bor. Bu kamchiliklar ishning mazmun va mohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi

Taqrizchi:



TATU qoshidagi 1-son Akademik litsey
o'qituvchisi Axmedov G'ulom.

2015 yil « 16 » iyun

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferenstiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e'tiborga olingan holda baholash mezonlariga o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch davlat universiteti Tarix Fakulteti
5120300 - Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) yo'nalishining
bitiruvchisi

Raxmanova Shirin Kutlimuratovnaning

“O'zbekiston tarixi: antik davr tarixi bo'yicha moddiy va yozma manbalarning qiyosiy tahlili va uning natijalari” mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning «___» 2015 yil «_____» dagi majlisida himoya qilinadi. Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan ball
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	
3	“Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferenstiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	

Jami:	
-------	--

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. **“O‘zbekiston tarixi: antik davr tarixi bo‘yicha moddiy va yozma manbalarning qiyosiy tahlili va uning natijalari”** mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun _____ lik o‘zlashtirish ko‘rsatkichi belgilanish va «_____» deb baholansin.

2. _____

DAK raisi: _____

A‘zolari: _____

2015 yil «_____» iyun

Urganch davlat universiteti Tarix Fakulteti Tarix kafedrası

Bitiruv malakaviy ish _____ sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi **Raxmanova Shirin
Kutlimuratovna**


Bitiruv malakaviy ishning mavzusi **“O‘zbekiston tarixi: antik davr tarixi
bo‘yicha moddiy va yozma manbalarning qiyosiy tahlili va uning natijalari”**

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi t.f.n.dots. Abdullayev.O' 

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2015 yil «_____» _____ da o‘tkazilgan
majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib Axmedov G' tayinlandi.

Kafedra mudiri:



t.f.n. dots. Abdullayev T.P

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha
tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:



t.f.n. O. O. Shixov.

Urganch davlat universiteti Tarix Fakulteti Tarix kafedrası

5120300 - Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) yo'nalishi ta'lim
bakalavr

Tasdiqlayman

fakultet dekani

t.f.n.Shixov.O

“28” noyabr 2014 y.



BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba: **Raxmanova Shirin Kutlimuratovna**

1. Ishning mavzusi: **“O'zbekiston tarixi: antik davr tarixi bo'yicha moddiy va yozma manbalarning qiyosiy tahlili va uning natijalari”**

«15» noyabr 2014 yil universitet rektorining “188-T & 1” sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “1” iyun 2015 y.

3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati



1. Каримов И.А. «Тарихий хотирасиз келажак йўк». – Тошкент, «Шарк», 1998.
2. Каримов И.А. «Юксак маънавият – енгилмас куч». – Тошкент, «Маънавият», 2008.
3. Каримов И.А. Танланган асарлар. –Т. 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12,13,14,15,16, 17. – Тошкент, «Ўзбекистон», 1990-2009.
4. Каримов И.А. «Биз бағри кенг ва ҳамдард халқмиз». – “Андижон нашриёт матбаа” Маъсулияти чекланган жамият. 2010.
5. Каримов И.А. “Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида”- Тошкент. «Ўзбекистон», 2011.
6. “Avesto”. “Yasht” kitobi. O'zbek tiliga M. Ishoqov ilmiy-izohli tarjimalari.- Toshkent, “Sharq”, 2001.
7. Azamat Ziyov. “O'zbek davlatchiligi tarixi”- Toshkent, “Sharq”, 2000.

8. Eshov B.J. "O'rta Osiyo qadimgi shaharlari tarixi". O'quv qo'llanma.-Toshkent, 2006.
9. Eshov B.J. "Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi". Darslik.-Toshkent, Fan va texnologiya, 2008.
10. Eshov B.J. "O'zbekiston davlatchiligi tarixi" O'quv qo'llanma.-Toshkent, Ma'rifat, 2009.

4. Ishning maqsadi: Bitiruv malakaviy ishida O'rta Osiyo antik davr shaharlari tarixini arxeologik ashyolar va boshqa xil manbalar asosida o'rganish asosiy maqsad qilib qo'yilgan. O'rta Osiyo antik davr shaharlarining vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari, o'troq va ko'chmanchi chorvador aholi o'rtasidagi munosabatlardagi o'rni va ularning ijtimoiy-madaniy jihatdan jamiyatdagi o'rnini tahlil qilish nazarga olingan. Bu masalalarni ilmiy-nazariy tahlil qilish jarayonida muammoning dolzarbligini e'tiborga olgan holda, tadqiqotning manbalarini har tomonlama tahlil etish, to'plangan tajribani umumlashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblandi.

5.Maslahatchilar: Abdullayev. O', Matyoqubova. M, Masharipov. Q

Bo'limlar	Maslahatchi F.I.Sh.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi
1.1."Antik davr tarixining moddiy manbalarda aks etishini"ni o'rganish	O'. Abdullayev Q. Masharipov	 12.01.2015 	 28.01.2015 
1.2. Antik davr tarixining arxeologik jihatdan o'rganilishi.	O'. Abdullayev M. Matyoqubova	 05.02.2015	 28.02.2015

2.1. Antik davr siyosiy tarixining qiyosiy tahlili.	O'. Abdullayev Q. Masharipov	 28.02.2015 	 06.03.2015 
2.2. Antik davrda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning qiyosiy tahlili	O'. Abdullayev M. Matyoqubova	 06.03.2015	 27.03.2015

Ishga taqriz yozuvchi: TATU qoshidagi 1-son Akademik litsey o'qituvchisi Axmedov G'.



Ilmiy rahbar: t.f.n dots. Abdullayev O'. I


(imzo)

BMI bajaruvchi talaba: Raxmanova Sh. K


(imzo)

Kafedra mudiri: t.f.ndots.Abdullayev T.P


(imzo)

MUNDARIJA:

Kirish.....	3-9
--------------------	------------

I Bob. Antik davr tarixi bo'yicha moddiy va yozma manbalarning o'rganilishi.

1.1. Antik davr tarixining yozma manbalarda aks etishi	10-19
1.2. Antik davr tarixining arxeologik jihatdan o'rganilishi.....	19-31

II Bob. Moddiy va yozma manbalarda antik davr siyosiy, iqtisodiy – ijtimoiy munosabatlarning aks etishi va ularning qiyosiy tahlili.

2.1. Antik davr siyosiy tarixining qiyosiy tahlili.....	32-44
2.2. Antik davrda kechgan ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning qiyosiy tahlili.....	44-53
Xulosa.....	54
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	55-56

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Qadimgi davrlardan boshlab O'rta Osiyo xalqlarining ajdodlari o'zaro aloqadorlik asosida rivojlanib, turli qadimgi davlatlarning umumiy hududlarida birgalikda istiqomat qilganlar. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida "Har qanday sivilizatsiya ko'pdan-ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta'sirining mahsulidir", deya ta'kidlagan edi².

Jahon tarixshunosligida shaharlar tarixi masalasi haqida ko'plab nazariyalar mavjud. Bu O'rta Osiyo xalqlari shaharsozlik tarixiga ham mansub bo'lib, mazkur tadqiqotning asosiy mazmuni antik davr shaharsozligi misolida ushbu muammoning o'rganilish darajasi hamda holatini yoritib berishni ko'zda tutadi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab O'rta Osiyoning antik davr tarixiga, shu jumladan shaharsozlik tarixiga tegishli ilk yozma manbalar o'rganilib, tahlil qilina boshlandi va shu asosda mintaqadagi antik shaharsozlik masalasini yoritish borasida dastlabki qadamlar tashlandi. Ammo yozma ma'lumotlarning kamligi tufayli o'sha davrda (asosan G'arb tarixshunosligida) mavzuni yetarli darajada o'rganishning imkoni bo'lmagan.

XX asrning 50-60-yillariga kelib, mintaqaning turli hududlarida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlarni yozma manbalardagi ma'lumotlar bilan taqqoslash imkoniyati yuzaga keldi. SHunga qaramasdan O'rta Osiyoning antik davr shaharsozligi mavzusi mahalliy xalqlarning milliy davlatchiligi tarixi sifatida talqin etilmadi. O'zbekiston tarixida O'rta Osiyoning antik davr shaharsozligi muammosi masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tarix fanida yetarli darajada o'z aksini topmagan.

Shuningdek, mazkur masala tarixining o'rganilishi natijalari O'rta Osiyo tarixshunosligida umumlashtirilmagan, mavjud yondashuvlar va asosiy nazariyalar ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada tanqidiy tahlil qilinmagan.

Mazkur tadqiqot O'rta Osiyoning antik davr shaharsozligi tarixi to'g'risida to'plangan ma'lumotlarni, mavjud ilmiy yondashuvlarni, fikr va xulosalarni,

² Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: SHarq, 1998. – B. 21.

mavzuning o'rganilishi natijalarini tarixshunoslik nuqtai nazaridan umumlashtirib, yaxlit tadqiq etuvchi dastlabki tadqiqot bo'lib, bu dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O'rta Osiyo tarixini xolis, haqqoniy yoritish maqsadida mintaqa antik shaharsozligi masalasiga oid turli g'oyalarni, jumladan, ijobiy, xolis va aksincha, siyosiy ko'zbo'yamachilik maqsadlariga yo'naltirilgan biryoqlama, noxolis, sub'ektiv ilmiy nazariyalarni o'rganish, ularga ilmiy baho berish dolzarb ahamiyatga ega.

Mavzuning o'rganilishi darajasi. Ilmiy adabiyotlarning tarixshunoslik tahlili shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyoda antik davrda shaharsozlikning vujudga kelishi va rivojlanishi muammosining o'rganilishi tarixi masalasi maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida alohida tadqiq etilmagan. O'rta Osiyoning antik davr shaharsozligi muammosi tarixshunosligi masalasiga bag'ishlangan maxsus monografiya yoxud tadqiqot hozirga qadar mavjud emas.

Aslida mavzu doirasidagi ilmiy tadqiqotlar XIX asrning ikkinchi yarmidan beri davom etib kelmoqda. Biroq XX-XXI asr boshlarida ushbu mavzu tarixshunosligi turli monografiyalarning kirish qismida, ayrim boblarida, kam sonli maqolalarda qisqacha aksini topgan, xolos. Shu o'rinda mavzuning ayrim jihatlari ba'zi adabiyotlarda qisqa yoki umumiy tarzda yoritilganligini ham ta'kidlash joiz.

Dastlab S.P. Tolstov va M.M. Dyakonovlar o'z tadqiqotlarida mavjud ma'lumotlarni tahlil qilib, shaharsozlikning paydo bo'lishi va uning o'rganilishi muammosini Xorazm va Baqtriya misolida ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qildilar³. Mualliflar O'rta Osiyo hududlaridagi antik shaharsozlik muammosiga tegishli ma'lumotlarni arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan qiyoslab, adabiyotlarda mavjud yondashuvlarni tahlil qilganlar.

³ Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. – M.: MGU, 1948 – 352 s.; O'sha muallif. Po sledam drevnexorezmiyskoy tsivilizatsii. – M. – L.: AN SSSR, 1948. – 328 s.; D'yakonov M.M. Slojenie klassovogo obshestva v Severnoy Baktrii // Sovetskaya arxeologiya. – 1954. – T. XIX. – S. 121-140.

XX asrning 50-yillariga kelib O'rta Osiyoda antik davr shaharsozlik tarixi o'rganilishining ayrim masalalari umumlashma tadqiqotlarda qisman o'z aksini topdi⁴.

V.M. Masson asarining qadimgi davlatlar uyushmalari muammosiga bag'ishlangan bo'limida mavjud adabiyotlarda o'z ifodasini topgan ilmiy qarashlar tahlil qilingan⁵.

V.M. Masson O'rta Osiyodagi antik davr shaharlari masalasidagi I. Markvart, S.P. Tolstov va I.M. Dyakonovlarning⁶ qarashlarini tanqidiy mushohada qilib, O'rta Osiyoda antik davr shaharlari Aleksandr Makedonskiy yurishlari bilan bog'liqlikda vujudga kelganligini inkor etadi⁷.

O'tgan asr 60-yillarining boshlarida S.P. Tolstov tadqiqotchilarning Xorazm davlatchiligi tarixiga oid yondashuvlari va xulosalarini tahlil qilish jarayonida, antik shaharsozlik masalasi borasida ham o'z qarashlarini ilgari suradi⁸. Yuqorida ko'rsatilgan tadqiqotlar va mavzuning aniq mohiyatini aks ettiruvchi turli ma'lumotlarning nashr etilishi masalani o'rganishdagi dastlabki qadam edi.

“Tojik xalqi tarixi” nomli monografiyada O'rta Osiyo turli hududlari antik davr shaharlari tarixining o'rganilishi hamda mintaqaning manbalarda tasvirlangan antik davr jamiyati to'g'risidagi ma'lumotlar yoritilgan⁹.

Shu yillarda V.M. Masson O'rta Osiyoning antik shaharlari ijtimoiy tizimi muammosining o'rganilishi natijalarini tanqidiy ko'rib chiqqan¹⁰. Bu tadqiqotlarning natijalari antik jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni hamda unda shaharlar o'rnini o'rganishda arxeologik ma'lumotlardan keng foydalanish zarurati muhimligini ko'rsatib berdi.

⁴ Istoriya narodov Uzbekistana. S drevneyshix vremen do nachala XVI veka. – T.: AN UzSSR, 1950. T. 1. – 474 s.; Gafurov B.G. Istoriya tadjikskogo naroda. – M.: Gospolitizdat, 1955. – 596 s.; Istoriya Turkmenskoy SSR. – Ashxabad: AN TurkmSSR, 1957. T. 1. Kn. 1. – 495 s.

⁵ Masson V.M. Drevnezemledel'cheskaya kul'tura Margiani // Materiali i issledovaniya po arxeologii SSSR. (Dalee MIA). – M., 1959. – № 73. – S. 123-132.

⁶ Marquart I. Wehrot und Arang. – Leiden, 1938. – S. 9-11; Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. – M.: MGU, 1948. – S. 341; D'yakonov I.M. Istoriya Midii. – M. – L.: AN SSSR, 1956. – S. 357-358.

⁷ Masson V.M. Drevnezemledel'cheskaya kul'tura Margiani... – S. 125-127.

⁸ Tolstov S.P. Po drevnim del'tam Oksa i Yaksarta. – M.: Izd. vost. lit., 1962. – S. 89-103.

⁹ Istoriya tadjikskogo naroda. – M.: Izd. vost. lit., 1963. T. 1. – S. 139-150.

¹⁰ Masson V.M. K voprosu ob obshestvennom stroe drevney Sredney Azii // Istoriya, arxeologiya i etnografiya Sredney Azii. – M.: Nauka, 1968. – S. 93-101.

XX asr 80-yillarining oxirlarida A.S. Sagdullaev mavzuning o'rganilishi va shunga oid nazariyalarga o'z e'tiborini qaratgan¹¹.

Sovet davri tarixshunosligida yozma manbalarda antik shaharlar tuzilishi va boshqaruviga oid ma'lumotlarning o'rganilishi yoritilgan bo'lib, u yozma manbalar va arxeologiya ma'lumotlari asosida qiyosiy tahlil etilgan¹².

Bu davr tarixshunosligining muhim kamchiliklaridan biri antik davr shahar madaniyatining xususiyatlari to'g'risidagi mavjud qarashlarning xilma-xilligini tan olmaslik edi. Tarixiy jarayonlar rivojlanishining muhim xususiyatlarini bir yoqlama baholashda marksistik dunyoqarash asosida shakllangan dastlabki nazariy qarashlar va eng muhimi, tarixiy materializm kontseptsiyasi ajralib turardi¹³. Bu nazariyaga ko'ra, shaharlar faqat tashqi hujumdan himoyalaniş vositasi sifatida vujudga kelgan. Sovet davri tarixshunosligida shaharlarning tashkil topishi va taraqqiy qilishi mavzusini o'rganish va yoritishda iqtisodiy omillar va sinflarning rolini haddan tashqari bo'rttirib ko'rsatish tamoyili ustunlik qilib, shaharlarning kelib chiqishi to'g'risidagi muqobil nazariyalar tan olinmagan.

O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab O'zbekistonda arxeologiya va qadimgi manbashunoslik jabhasida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, A.A. Asqarov, Yu.F. Buryakov, E.V. Rtveladze, R.H. Sulaymonov, T.Sh. Shirinov, A.S. Sagdullaev, V.N. Yagodin, M.I. Ishoqov, M.X. Isomiddinov, S.S. Qudratov, B. Matboboev, Sh. Shaydullaev kabi olimlarning tadqiqotlari mazkur muammoni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi¹⁴.

¹¹ Sagdullaev A.S. Osedlie oblasti yuga Sredney Azii v epoxu rannego jeleza (genezis kul'turi i sotsial'no-ekonomicheskaya dinamika): Avtoref. diss. ... dokt. istor. nauk. – M., 1989. – 45 s.

¹² Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. – T.: Fan, 1964. – 441 b.; Masson V.M. K voprosu ob obshestvennom stroe drevney Sredney Azii ... – S. 93-101; P'yankov I.V. Baktriya v antichnoy traditsii (obshchie dannie o strane: nazvanie i territoriya). – Dushanbe: Donish, 1982 – S. 3-62; Grantovskiy E.A. Baktriya i Assiriya v svyazi s problemoy drevnebaktriyskogo "tsarstva" // Baktriya i Toxaristan na drevnem i srednem Vostoke. – M.: Nauka, 1983 – S. 27-29.

¹³ Qarang: Engel's F. Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi. – T.: O'zbekiston, 1967. – 260 b.

¹⁴ Sagdullaev A.S. Voprosi tipologii i xronologii drevneyshix gosudarstv Sredney Azii // Srednyaya Aziya i mirovaya tsivilizatsiya: Tez. dokl. mejdunarodnoy nauch. konf. – T., 1992. – S. 132-133; Askarov A.A., SHirinov T.SH. Rannaya gorodskaya kul'tura epoxi bronzi yuga Sredney Azii. – Samarkand: Institut arx. AN RUz. – 1993. – 162 s.; Asqarov A.A. O'rta Osiyo qadimgi dunyosining asosiy xususiyatlari // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. – 1994. – № 6. – B. 31-35; Qudratov S.S. Markaziy Osiyo hududida ilk davlatlarning paydo bo'lishi. – Guliston: Nashriyotsiz, 1998. – 48 b.; Suleymanov R. Poyavlenie goroda na Yerkurgane i slojenie gosudarstvennosti na territorii Uzbekistana // O'zbekiston tarixi. – 1999. – № 2. – S. 14-22; SHirinov T. Srednyaya Aziya vo II tisyacheletii do n.e. i protozoroastrizm // Istoriya material'noy kul'turi Uzbekistana. – Samarkand, 2000. – Vip. 3. – S. 35-48; Isomiddinov M. Ilk zardushtiylik davri va Samarqand // O'zbekiston tarixi. – 2001 – № 3. – B. 42-47; Ishoqov M. "Avesto"da ezgulik va yovuzlik (mifologik qatamlar tahlili asosida) // O'zbekiston tarixi. 2001. – № 3.

Azamat Ziyoning monografiyasida O'zbekiston hududlaridagi qadimgi davlatlar to'g'risidagi ma'lumotlar yoritilgan bo'lsada, ammo unda antik shaharlarga kam e'tibor qaratilgan¹⁵.

“O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari” deb nomlangan to'plamda¹⁶ (muharrirlar D.A. Alimova va E.V. Rtveladze) shaharsozlik masalasida sovet davridagi yondashuvga munosabat bildirilib, mustaqillik yillarida mavzuning yangi ilmiy-uslubiy asoslarda o'rganilishining asosiy yo'nalishlari tahlil etilgan. Umuman, bu davr mavzuga oid bilimlarning bosqichli kengayishi va mavjud ma'lumotlarning qayta o'rganilish davri sifatida namoyon bo'ldi.

“O'zbekistonda tarix fani: yutuqlar va rivojlanish muammolari” to'plamida D.A. Alimova va Sh.I. Asadovalarning chop etilgan maqolalarida hozirgi bosqichda tarixshunoslik oldida turgan ustuvor yo'nalishlar tahlil qilingan¹⁷.

I.V. Pyankovning O'rta Osiyoda shaharsozlik tarixiga bag'ishlangan asarlarida tarixshunoslik va manbashunoslik muammolari tahlil etilib, mavzu yuzasidan mavjud adabiyotlar ro'yxati keltirilgan¹⁸.

Bulardan tashqari, O.A. Vaynberg, O.A. Vishnevskaya, Yu.A. Rapoport, V.N. Yagodinlarning Xorazm shaharsozligi tarixi va tarixshunosligiga doir tadqiqotlariga ham e'tibor qaratish lozim¹⁹.

Qadimgi Xorazm antik davr shaharsozligi tarixining o'rganilishi masalalari G'. Xodjaniyazovning monografiyasida ham keng yoritilgan²⁰. Ushbu mavzuga oid ma'lumotlar yangi nashr qilingan maqolalarda ham o'z aksini topgan²¹.

– B. 22-30; Matboboev B. Qadimgi Farg'onada ilk davlatchilik ildizlari // O'zbekiston tarixi. – 2002. – № 1. – B. 3-11; Yagodin V.N. Genezis i rannie etapi razvitiya drevnexorezmiyskoy gosudarstvennosti // O'rta Osiyo arxeologiyasi tarixi va madaniyati. – T., 2002 – S. 128-129; Rtveladze E. TSivilizatsii, gosudarstva, kul'turi TSentral'noy Azii. – T.: B.i., 2005. – 288 s.

¹⁵ Ziyov A. O'zbek davlatchiligi tarixi (eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). – T.: SHarq, 2000. – 368 b.

¹⁶ O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – T.: SHarq, 2001. – B. 3-6.

¹⁷ Alimova D.A. O nekotorykh sovremennix problemakh v izuchenii istorii Uzbekistana // O'zbekistonda tarix fani: yutuqlar va rivojlanish muammolari. – T., 2006. I qism. – B. 6-13; O'sha asar. Asadova SH.I. O'zbekistonda tarixshunoslik tadqiqotlari holati (1991-2000 yy.). – T., 2006. I qism. – B. 76-84.

¹⁸ Pyankov I.V. Drevneyshie gosudarstvennie obrazovaniya // Istoriya tadzhikskogo naroda. Drevneyshaya i drevnyaya istoriya. – Dushanbe: B.i., 1998. T. 1. – S. 238-249, 625-635.

¹⁹ Vaynberg B.I. Etnogeografiya Turana v drevnosti – M.: Nauka, 1999. – S. 15-25; Vishnevskaya O.A., Rapoport Yu.A. Kratkiy ocherk istorii Xorezma v drevnosti // Priaral'e v drevnosti i srednevekov'e. – M.: Nauka, 1998. – S. 150-173; Yagodin V. Genezis i rannie etapi razvitiya drevnexorezmiyskoy gosudarstvennosti // O'rta Osiyo arxeologiyasi, tarixi va madaniyati. – T., 2002. – S. 128-129; O'sha muallif. Drevneyshaya gosudarstvennost' i problema «Bol'shogo Xorezma» (1, 2-tsikl) // Vestnik Karakalpakskogo otdeleniya AN RUz. – 2007. – № 1-2. – S. 75-79; 70-78.

XX asrning 70-80-yillari, keyinchalik 90-yillarda arxeologik ma'lumotlarning kengayishi va ularning yozma manbalar bilan taqqoslanishi natijasida O'rta Osiyodagi antik shaharlarning xronologiyasi va tipologiyasi to'g'risidagi xulosalar qayta ko'rib chiqildi. Biroq, aslida antik shaharlarning paydo bo'lishi va mintaqadagi bu davr shaharlarida boshqaruv tizimi tahliliga oid tadqiqotlar yaratilmagan edi.

Xullas, muammoning o'rganilganlik darajasining tahlili shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyoda antik shaharlarning vujudga kelishi, ularning boshqaruv tizimi muammosi hozirga qadar yaxlit tarzda jamlab tahlil etilmagan va tarix fanida o'z yechimini kutayotgan muammolar sirasiga kiradi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishida O'rta Osiyo antik davr shaharlari tarixini arxeologik ashyolar va boshqa xil manbalar asosida o'rganish asosiy maqsad qilib qo'yilgan. O'rta Osiyo antik davr shaharlarining vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari, o'troq va ko'chmanchi chorvador aholi o'rtasidagi munosabatlardagi o'rni va ularning ijtimoiy-madaniy jihatdan jamiyatdagi o'rnini tahlil qilish nazarga olingan. Bu masalalarni ilmiy-nazariy tahlil qilish jarayonida quyidagi vazifalarni bajarish maqsadga muvofiq deb hisoblandi.

1. O'rta Osiyo antik davri madaniyatini ko'rsatuvchi yodgorlik va manzilgohlarda arxeologik tadqiqotlar olib borish natijasida olingan ashyolarni ilmiy tahlil qilish;
2. O'rta Osiyo antik davri madaniy-xo'jalik markazlari vujudga kelishi va ularning tarkibiy qismi bo'lgan shaharlarning tarixiy ildizlariga aniqliklar kiritish;
3. Antik davr jamiyatida sodir bo'lgan tarixiy-siyosiy vaziyat taqozosi tufayli mazkur davr madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonini yoritish;

²⁰ Xodjaniyazov G'. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari. – T.: O'zbekiston, 2007. – B. 58-60.

²¹ Askarov A. Novie podxodi k izucheniyu istorii Drevnego Xorezma // O'zbekiston tarixi. – 2007. – № 4. – S. 11-21; Sagdullaev A., Abdullaev U. Istoriya Xorezma v svete issledovaniy S.P.Tolstova (epoxa pozdney bronzi i rannego jeleza) // O'zbekiston tarixi. – 2007. – № 4. – S. 4-11; Baratov S. Nekotorie problemi arxeologicheskix issledovaniy drevnix kul'tur Xorezma // O'zbekiston tarixi. – 2007. – № 4. – S. 22-34.

4. O'rta Osiyo antik davri shaharsozligi madaniyatining jahonning turli hududlari shu davrlar shaharsozlik madaniyati kompleksidagi tarixiy o'rni va ahamiyatini yoritish;

5. O'rta Osiyo antik davri shaharsozlik madaniyati taraqqiyoti jarayonida qo'shni hududlardagi aholi bilan madaniyat va san'at sohasidagi aloqalarini tahlil qilish va unda shaharlarning o'rnini ko'rsatib berish.

Tadqiqotning manbaviy asoslari. Sobiq Sovet davrida va Vatanimiz mustaqillik yillarida turli ekspeditsiya xodimlari tomonidan O'rta Osiyo hududlarida mavjud bo'lgan antik davr yodgorliklarida, qishloq va boshqa tipdagi aholi maskanlarida keng miqyosda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari tadqiqotning manbaviy asoslarini tashkil qilgan.

Tadqiqotning ob'ekti. O'rta Osiyo antik davrining turli davrlarida barpo qilingan yodgorlik va manzilgohlar kompleksi asosiy tadqiqot ob'ekti bo'lib hisoblandi.

Tadqiqotning nazariy-uslubiy asoslari. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida, O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov asarlarida qayd etilgan ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan boy moddiy va ma'naviy merosni o'rganish va ularni kelajak avlodga avaylab yetkazish haqidagi g'oyalari, ayniqsa, Xorazm vohasi tarixiga doir, fikr-mulohazalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmonlarida ifodalangan muhim vazifalar tadqiqotning nazariy-metodologik asoslarini tashkil etadi. Tadqiqot tarixiylik, ob'ektivlik, ilmiylik, xolislik, mantiqiy izchilik tamoyillariga asoslandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotda qayd qilingan maqsad va vazifalarni amalga oshirish jarayonida paydo bo'lgan tarixiy ma'lumotlarning ilmiy yangiligini quyidagicha qayd qilish imkonini berdi.

- O'rta Osiyo antik davr shaharlarining vujudga kelishi, shakllanishi omillari va rivojlanish jarayoni, geografik sharoit va antropogen landshaft masalalari qarang chiqildi;

- O'rta Osiyo antik davr shaharsozligi madaniyati bilan bog'liq juda boy arxeologik materiallar tahlil qilinib, ular bir tizimga solindi va ilk bor tarixga yangi qarashlar va yondashuvlar asnosida umumlashtirildi;
- O'rta Osiyo antik davr madaniy-xo'jalik markazlari va uning tarkibini tashkil qilgan shaharlarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish darajasi qiyosiy tahlil asosida yoritildi;
- Antik davr madaniyati bilan bog'liq bo'lgan tarixiy jarayon, ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy omillarning tarixiy o'rni ilmiy tahlil qilindi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot materiallari asosida qayd qilingan keng qamrovli ma'lumotlar va ilmiy xulosalar O'zbekiston tarixining ko'p jildli yangi variantini yozishda, Qoraqolpog'iston Respublikasi, Xorazm tarixining qadimgi davrlar bo'limini tayyorlashda shuningdek, oliy o'quv yurtlari tarix fakultetlarida O'zbekiston va Xorazm tarixidan o'qiladigan mahsus kursni yaratishda bazaviy manba bo'ladi. Shuningdek, aspirantlar, tarixchilar, muzey hodimlari, o'lka tarixiga qiziquvchilar uchun tadqiqot natijalari muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I – Bob. Antik davr tarixi bo'yicha moddiy va yozma manbalarning o'rganilishi.

1.1. Antik davr tarixining yozma manbalarda aks etishi.

O'zbekistonning qadimgi va antik davrdagi tarixini o'rganishda qadimgi Yunoniston va Rim tarixchilari hamda geograf olimlarining asarlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Quyida ulardan ayrimlari haqida ma'lumotlarni keltiramiz.

Geradot (miloddan avvalgi 490-480 yillar o'rtasi – 425 y.) – yirik qomusiy olim, tarix fanining “ota”si, asli Kichik Osiyoning Galikarnas shahridan, 455-447 yillari Yevropa, Osiyo va Misr bo'ylab sayohat qilgan.

Geradot Ellada va Sharq mamlakatlari (Liviya, Misr, Assuriya, Vavilon, Eron va Skifiya)ning qadim zamonlardan to miloddan avvalgi 479 yilgacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy hayotidan hikoya qiluvchi 9 kitobdan iborat “Tarix” nomli asari bilan shuhrat topgan. Bu asar umumiy tarix yo'nalishida yozilgan birinchi kitob hisoblanadi. Shu tufayli ham Geradot, Sitseronning (miloddan avvalgi 106-43 yy.) so'zlari bilan aytganda, tarix fanining “ota”si hisoblanadi.

Geradot garchi o'zi bayon etayotgan voqealar ustida chuqur mulohaza yuritmasa ham, ularni to'g'ri bayon etishi, o'zga xalqlar va mamlakatlar tarixiga xurmat nuqtai nazaridan qarashi bilan ba'zi tarixchilardan ajralib turadi.

Geradotning asarida O'zbekistonning qadimiy xalqlari bo'lmish agrippiylar, issedondar, massagetlar, daylar va saklar haqida, ularning turmushi, urf-odatlarini hamda qo'shni mamlakatlar bilan aloqalari haqida qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz.

“Tarix”ning Shteyn tarafidan tayyorlangan tanqidiy matni 1869-1871 yillarda chop etilgan. Asar ingliz (Roulinson, London, 1856-1860 yy.) hamda rus (F.G. Mishchenko, Moskva, 1858-1860 yy.) tillariga tarjima qilingan. 1982 yilda asarning mamlakatimiz tarixiga oid qismlari zarur izohlar bilan A.I.Davatur, D.P.Kallistov hamda I.A.Shishova tomonidan yangidan nashr etilgan.

Diodor (miloddan avvalgi 90-21-yillar) yirik tarixchi olim, asli Sisiliyaga qarashli Argiriya shahridan. U “Tarixiy kutubxona” nomli 40 kitobdan iborat asar yozib qoldirgan. Umumiy tarix yo'nalishida yozilgan bu asar asosan Yunoniston

va Rimning qadim zamonlaridan to milodning 1 asr o'rtalarigacha bo'lgan tarixini o'z ichiga oladi. Unda Sharq xalqlari, shuningdek, O'zbekistonning qadimiy xalqlari skiflar, saklar, massagetlar, baqtriyaliklar, yurtimizning Eron bilan bo'lgan munosabatlari haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

Diodorning mazkur asari ko'p jihatlar bilan ko'chirma-kompilyasiya hisoblanadi. Muallif Efor, Polibiy asarlaridan keng foydalangan. Bundan tashqari, ko'p hollarda bayon etilayotgan voqealar uzviy bog'lanmay qolgan. Shunga qaramay, bu asar dalillarga boy va katta ilmiy ahamiyatga egadir.

Diodorning asari to'la holda bizning zamonamizgacha yetib kelmagan. Uning faqat 15 kitobi - qadimgi Sharq xalqlarining tarixi va afsonalari haqida hikoya qiluvchi 1-5- kitoblari, Yunoniston hamda Rimning Yunon-Eron urushlari(miloddan avvalgi 500-449 yy.)dan to miloddan avvalgi 301 yilgacha bo'lgan tarixini o'z ichiga olgan 11-20- kitoblarigina saqlangan, xalos.

Bu asar 1774-1775- yillari I.Alekseyev tomonidan olti qismda va 1874-1875-yillari F.G. Mishchenko tarafidan ikki qism qilib nashr etilgan.

Pompey Trog (milodgacha I-milodning I asrlari o'rtasida yashab o'tgan) – “Filipp tarixi” asari bilan mashhur bo'lgan Rim tarixchisi. 44 kitobdan iborat bu asar afsonaviy Assuriya podshohlari zamonidan to Rim imperatori Avgust (miloddin avvalgi 63 – milodning 14-yili) davrigacha dunyoda bo'lib o'tgan voqealarni bayon qiladi, lekin asosiy e'tibor Yunonistonning makedoniyalik Filipp II (miloddan avvalgi 359-336-yy.) va Iskandar Zulqarnayn davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon etishga qaratilgan.

Mazkur asarning qimmatini shundaki, u bir talay noma'lum kitoblarga suyanib yozilgan, Rim, Yunoniston kabi yirik davlatlarning paydo bo'lishi va tarixini keng yoritib bergan. Muhimi shundaki, muallif bunday davlatlarning oxir-oqibatda inqirozga uchrashini aytadi. Pompey Trog tarixni harakatga keltiruvchi kuch urf-odat va taqdir deb hisoblagan.

“Filipp tarixi”da skiflar, Baqtriya, Iskandar Zulqarnayn davrida Baqtriya va So'g'dda qurilgan shahar va katta imoratlar, Iskandar Zulqarnayn vafotidan keyin yuz bergan voqealar, parfiyaliklarning kelib chiqishi, ularning urf-odatlarini, Parfiya

podsholigini tashkil topishi, Baqtriya, Parfiya va Midiyaning o'zaro munosabatlariga oid muhim ma'lumotlar mavjud.

Pompey Trogning bu asari Yustin tarafidan qisqartirilib qayta ishlangan shaklda bizning zamonimizgacha yetib kelgan va Ruxl tomonidan 1935 yili chop qilingan. Uning ruscha tarjimasi A.A.Dekonskiy va M.M.Rijskiy tomonidan "Vestnik drevney istorii" jurnalining 1954-yil 2-4 va 1955-yil 1-sonlarida bosilgan.

Arrian Flaviy (taxminan 95-175-yy.) – yirik yunon yozuvchisi, tarixchisi va geograf olimi, Kichik Osiyoning Nikomadiya shahridan. U "Iskandar haqida", "Parfiyaliklar haqida", "Hindiston" va 7 jildlik "Iskandarning yurishlari" nomli kitoblar muallifidir.

O'zbekiston va Eronning qadimiy tarixini o'rganishda Arrianning "Iskandarning yurishlari" nomli asari muhim ahamiyat kasb etadi. Unda fotihning O'zbekiston, Eron hududlari va boshqa mamlakatlarga istilochilik yurishlari tarixi batafsil bayon qilingan.

Asar panegrizm-maddohlik ruhida yozilgan – muallif Iskandar Zulqarnayn va uning faoliyatini ko'klarga ko'tarib ulug'laydi. U ko'pgina qo'lyozma manbalar va rasmiy hujjatlar asosida yozilgan bo'lib, mavzu bo'yicha muhim va asosiy manbalardan hisoblanadi.

Arrian Flaviyning "Iskandarning yurishlari" asari nemis (Myuller, Leypsig, 1886 y.) hamda rus (Korenkov, Toshkent, 1912 y. va M.Ye.Sergeyenko, M.-L., 1962 y.) tillarida nashr etilgan.

Kvint Kursiy Ruf (milodning I asri) – mashhur Rim tarixchisi, Iskandar Zulqarnaynning Eron, Turon va boshqa mamlakatlarga qilgan harbiy yurishlari haqida 10 kitobdan iborat "Buyuk Iskandar tarixi" nomli asar yozib qoldirgan. Muallif Ptolomey Lag va Iskandar Zulqarnaynning safdoshlari Onesikrit va Kallisfenning xotira va asarlaridan keng foydalangan.

Kvint Kursiy Rufning asarida O'zbekiston hududining Iskandar Zulqarnayn qo'shinlari tomonidan istilo qilinishi, xalqlarning chet el bosqinchilariga qarshi kurashi, xususan, Spitamen boshliq qo'zg'olon keng yoritib berilgan.

“Buyuk Iskandar tarixi” 1841- yili Myusel, 1867- yili T.Nyoldeke va 1885- yili Fogel tomonidan nashr yetilgan. Ruscha yangi tarjimasi V.S.Sokolov tahriri ostida chop etilgan (M.,1963 y.).

Gay Pliniy Sekund (24-79 y.) – rimlik mashhur yozuvchi, tarixshunos olim va davlat arbobi, 79-yili mashhur Vezuviy vulqonining otilib chiqishi natijasida yuz bergan umumxalq fojeasi vaqtida halok bo’lgan.

Gay Pliniy Sekund – sermaxsul olim, 20 kitobdan iborat “Germanlarning urushlari”, ikki jildidan iborat “Pomponiy Sekundning hayoti” va 37 kitobdan iborat “Oddiy tarix” nomli asarlar yozib qoldirgani ma’lum.

Pliniyning germanlar tarafidan Reyn va Dunay bo’ylari mamlakatlarining bosib olinishi tarixidan bahs yurituvchi “Germanlarning urushlari” nomli asari bizning davrimizgacha yetib kelmagan, lekin u Korneliy Tasitning (taxminan 56-117-yy.) “Solnomalar” imperator Oktavian Avgust vafotidan (milodning 14-yili) Neronning halok bo’lishigacha (milodning 68-yili) bo’lib o’tgan voqealarni o’z ichiga oladi hamda “Germaniya” (unda german va boshqa qabilalarning tarixi bayon yetilgan) nomli asarlari uchun birinchi manba bo’lgan.

“Pomponiyning hayoti”da Pliniy sobiq boshlig’i Pomponiy Sekundning hayoti va faoliyati haqida hikoya qiladi. Bu asar ham bizning zamonamizgacha yetib kelmagan.

“Oddiy tarix” Gay Pliniy Sekundning shoh asari hisoblanadi va unda antik dunyo tarixi, iqtisodiy ahvoli hamda madaniyati bayon etilgan. Unda muallifning o’z manbalariga jiddiy va tanqidiy munosabatda bo’lmaganligi, ayrim dalil va voqealarni buzib ko’rsatilganligi sezilib turadi. Bu kitob antik dunyo tarixi bo’yicha keng ma’lumot beruvchi qomusiy asar sifatida e’tiborga sazovordir.

“Oddiy tarix”da O’zbekistonning ham qadimiy tarixi, unda yashagan xalqlar, masalan, skiflar, Oks-Amudaryo, Yaksart-Sirdaryo va skifcha joy nomlari, tabiiy boyliklari, Antioxiya shaharlarining barpo etilishi haqida qimmatli ma’lumotlar bor.

Polibiy (miloddan avvalgi 201-120- yy.) – yirik yunon tarixchisi, 40 kitobdan iborat “Umumiy tarix” asari bilan mashhur. Unda Yunoniston,

Makedoniya, Karfagen, Misr, Suriya va Rimning 220-146-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi. Umumiy tarix yo'nalishida yozilgan bu asarning katta qismi saqlanmagan, bizgacha faqat 1-5- kitoblarga yetib kelgan, xalos.

Polibiyning "Umumiy tarixi" daliliy ma'lumotlarga boyligi, voqealarning nisbatan xolisona yoritilishi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Unda Oks – Amudaryo va Yaksart – Sirdaryo haqida, Antiox I ning Baqtriya podshohi Yeftidemga qarshi harbiy yurishi haqida muhim ma'lumotlar bor.

"Umumiy tarix"ning matni 1889-1905-yillar orasida to'rt jildda Leypsigda chop etilgan. Uning inglizcha (V.R.Paton, London, 1922-1927; ikkinchi nashri, London, 1957-1960) va ruscha (F.G.Mishchenko, 1-3 jildlari. Moskva, 1890-1899) tarjimalari mavjud.

O'zbekistonning qadimiy tarixini o'rganishda qadimiy Yunoniston va Rim tarixchilarining asarlari benihoyat qimmatlidir.

Efor (miloddan avvalgi taxminan 405-330-yillar), Klavdiy Ellian (taxminan milodning 170-235-yillari), aleksandriyalik Kliment (milodning 11 asri), Korneliy Tatsit (taxminan milodning 56-117-yillari), Ksenefont (taxminan miloddan avvalgi 430-355-yillar), Plutarx (milodning 46-127-yillari), Poliyen (milodning 11 asri) va boshqalarning asarlari ham ana shunday qimmatga egadir.

Geograf olimlardan Strabon va Ptolomey asarlari ham zo'r ilmiy qiymatga egadir.

Strabon (miloddan avvalgi 63 – milodning 23 y.) qadimgi Yunonistonning atoqli geograf olimlaridan, asli amosiyalik (Pont podshohlarining qarorgohlaridan), nufuzli va badavlat oiladan chiqqan, mashhur yunon faylasufi Aristotelning (miloddan avvalgi 384-322-yy.) shogirdi, qariyb 80 yil umr ko'rgan.

Strabonni dunyoga tanitgan uning 17 kitobdan iborat "Geografiya" nomli asaridir. Asarning 1-2- kitoblari "Muqaddima" deb ataladi va unda geografiya ilmi va uning hokimlar, sarkardalar va savdogarlar faoliyatidagi o'rni va roli haqida gap boradi. Eratosfen, Poseydon va Polibiyning Yer tuzilishi haqidagi ta'limoti tanqid qilinadi, Yer yuzini tavsiflash haqida umumiy tushuncha beriladi.

3-10- kitoblarida Yevropa mamlakatlarining tavsifiga, shundan 8-10- kitoblar Ellada va unga tutash mamlakatlarga bag'ishlangan.

Asarda Osiyo mamlakatlariga katta o'rin berilib, ular to'g'risida 11-16 kitoblarda ma'lumot berilgan. 17 kitob Afrika mamlakatlariga bag'ishlangan.

Strabon Polibiyning "Umumiy tarix"ini davom ettirib, unga miloddan avvalgi 146-31-yillar orasida bo'lib o'tgan voqealarni qo'shgan. Afsuski, bu muhim asar bizning zamonimizgacha yetib kelmagan, lekin uning ayrim qismlari, xususan O'zbekiston tarixidan xabar beruvchi ayrim parchalar olimning "Geografiya" nomli asariga kirib qolib saqlangan.

Strabonning "Geografiya"sida Girkaniya, Parfiya, Baqtriya va Marg'iyonaning tabiiy holati, shaharlari, qisman ularga borish yo'llari, Oxa (Harrirud), Oks va Yaksart daryolari haqida, O'zbekistonning qadimiy xalqlari – saklar, massagetlar, daylar, atasiyalar, toharlar hamda xorazmliklar va ularning kelib chiqishi, bu xalqlarning turmushi, urf-odati va e'tiqodi, shuningdek Parfiya va Baqtriyaning miloddan avvalgi III asrning birinchi choragidagi ichki ahvoli va o'zaro munosabatlari haqida muhim va qimmatli ma'lumotlar mavjud²².

Strabonning ushbu asari 1844 va 1848- yillari Kramer va Myuller tarafidan, maxsus xarita va sharhlar bilan qo'shib nashr qilingan. Uning nemischa (Grosskurd, Berlin, 1831-1834) hamda ruscha (F.G.Mishchenko, Moskva, 1879, G.A.Stratanovich, Moskva, 1964) tarjimalari ham mavjud.

Ptolomey Klavdiy (taxminan 90-160 yy.) – mashhur qomusiy olim, Aleksandriyada yashab ijod qilgan. U astronomiya, geometriya, fizika (optika, mexanika) hamda geografiyaga oid asarlar yozib qoldirgan.

Olimga shuhrat keltirgan asari "Geografiya"dir. "Geografiya"ning (8 kitobdan iborat) birinchi kitobi, aniqrog'i uning 24- bobi jahon mamlakatlarini tavsiflashga bag'ishlangan va katta ilmiy qiymatga ega. Shunisi muhimki, asarda shaharlar, mamlakatlar va ularning koordinatalari keltirilgan va unga 27ta xarita ilova qilingan.

²² Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. Т., «Фан». 1992. 89-бет.

Ptolomeyning “Geografiya”sida Girkaniya, Marg’iyona, Baqtriya, So’g’diyona hamda skiflar mamlakatining geografik holati, Baqtriya va So’g’diyoning mashhur shaharlari, shuningdek o’sha mamlakatlar va ular bilan tutash o’lkalar va ularning aholisi haqida asl va qimmatli ma’lumotlar keltirilgan²³.

Yozma manbalar ma’lumotlari ko’p hollarda arxeologik ma’lumotlar bilan tasdiqlanadi va arxeologik manbalarga tayangan xolda ish olib boradi. Arxeologiya ma’lumotlarining guvohlik berishicha, mil.avv. VII-VI asrlarda Baqtriyada shaharlar shakllanib bo’lgan edi. Oltindildaryo (Aorn), Baqtriya (Boloι Xisor) va Qiziltepa kabi ko’hna shaharlar mustahkam himoya devorlari bilan o’rab olinadiki, ular bu hududlarda davlatchilik rivojlanishining asosi edi²⁴.

Klavdiy Ptolomey o’zining “Geografik qo’llanmasi” asarida So’g’diyona chegaralariga aniqlik kiritib shunday deb yozadi: So’g’diyona “g’arbda Skifiyaning bir qismi, shimolda ham Yaksart daryosida Skifiyaning bir qismi bilan chegaralangan”²⁵.

Geradot sug’diylarni ikki marotaba – Ahamoniylar davlatining XVI satrap o’lkasidagi xalqlarni sanab o’tganda va forslarning qo’shinlari safida jangchi – sug’diylarning o’rnini ko’rsatib berganda tilga olgan. Ammo tarixchi Sug’d shaharlari, daryolari, tog’lari, hududiy chegaralari haqida bizga hech qanday ma’lumotlar qoldirmagan. Ahamoniylar mixxatlari Sug’diyona haqida asosan rasmiy darajada e’lon qiladilar va turli xil tarixiy muommolarni o’rganishda ulardan foydalanish og’ir kechadi. Gekatiy, Ktesiy va Ksenofond asarlarida sug’diylar haqida ma’lumotlar uchramaydi²⁶.

O’rta Osiyo xalqlarining Ahamoniylar davriga oid yozma ma’lumotlarini tosh va sopolga o’yib yozilgan katibalarda (mixiy yozuvlar) ham uchratishimiz mumkin. Bunday yozuvlar Ahamoniylarning qadimgi poytaxti Persopol, shuningdek Suza va Ekbatana (hozirgi Hamadon) shaharlari va uning atrofida topilgan.

²³Шамсутдинов Р, Ш.Каримов. Ватан тарихи. Т., “Шарк”, 2010.36-бет.

²⁴ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Т., “Янги аср авлоди”. 2012. 54-бет.

²⁵ Носиров Ў. Ўзбеклар шажараси. Т., “Extremum Press”. 2012. 47-бет.

²⁶ Асқаров А. Ўзбекистон тарихи. Т., “Ўқитувчи”. 1994. 119-бет. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Т., “Янги аср авлоди”. 2012. 73-бет

Masalan, pishiq sopol taxtachaga o'yib yozilgan bir katibada Doro 1 (miloddan avvalgi 522-486 yy.) hukmronligining dastlabki yillarida (miloddan avvalgi 494-490-yillar orasida) Suzada bunyod yetilgan saroyning qurilish tafsiloti, aniqrog'i qurilishga ketgan materiallarning qaysi mamlakatdan keltirilganligi yozilgan taxtachadagi ma'lumotlarga ko'ra, oltin Lidiya bilan Baqtriyadan, qimmatbaho toshlar, lazurit va serdolik (qizil va qizg'ish rangli tosh) So'g'diyonadan, firuza Xorazmdan olib kelingan.

Persopoldan (Sherozning shimoliy tarafida, undan taxminan 50 km masofada joylashgan 520-450 -yillar orasida qurilgan shahardan) topilgan yozuvlar va tasviriy suratlar – releflar katta ilmiy qiymatga ega. Ularning ayrim namunalari XVII-XVIII asrlarda (1621 y.) italiyalik sayyoh Pedro Della Valle va daniyalik olim K. Niburning nomi bilan bog'liq. 1931-1934, 1935-1939 va undan keyingi yillari nemis olimi Ye.Xersfeld, amerikalik E.Shmidt, fransuz A.Godar hamda eronlik M.T.Mustafoviy va A.Somiy tarafidan o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Persopolda juda ko'p noyob yodgorliklar ochildi. Ular orasida Apadana zinalari ustiga ishlangan tasviriy suratlar alohida ahamiyat kasb etadi. Suratlarda (balandligi 3 fut – ingliz o'lchovi 30, 479 santimetrغا teng) ahamoniylarga tobe bo'lgan 23 satraplikdan (qaram mamlakatdan) o'lpon olib kelgan kishilar qiyofasi tasvirlangan. Bular orasida baqtriyaliklar turli idishlar, teri, mo'yna va tuya bilan, so'g'dliklar turli mato, teri va qo'ylar bilan, saklar ot va chakmonlar bilan, parfiyaliklar idishlar va tuya bilan va xorazmliklar ot va qurol-aslaha bilan tasvirlangan.

Katibalarda, ayniqsa Doro 1 surati ostiga yozilgan katibada, uning davlati ko'klarga ko'tarib maqtaladi, uning tarafidan bosib olingan xalqlar esa itoatkorlikka va halol mehnat qilishga chaqiriladi, bo'ysunmaganlar va shu sababdan jazoga mahkum etilganlarning nomlari qayd etiladi. Muhimi shundaki, katibada ahamoniylarga tobe bo'lgan 23 satraplik va xalqlarning to'la ro'yhati yozilgan. Bular orasida parfiyaliklar, baqtriyaliklar, so'g'diyonaliklar hamda xorazmliklar ham bor.

Yodgorlik orasida muhimlaridan yana biri mashhur Behistun yozuvlaridir. Bu yozuvlar uzunligi 22 m, umumiy balandligi 7,8 m bo'lib, ular Shimoliy Eronda, Kirmonshohdan 30 km masofada, daryo bo'ylab o'tgan qadimgi karvon yo'li yoqasida, uning chap tarafida, Zagros nomli tik qoyaga, taxminan 105 metr balandlikda Doro I ning amri bilan yozilgan g'alaba yodgorligidir. Yozuv elam, babil va qadimgi eron tillarida bitilgan va miloddan avvalgi 523-522-yillari Ahamoniylar saltanatini larzaga keltirgan Gaumata – 522-yil 29-sentyabrda halok bo'lgan, Frada – marg'iyonalik, 522-yil 10-dekabrda asirga olingan, Skunxa - hozirgi Qozog'iston va O'zbekiston hududida istiqomat qilgan sak qabilalarining yetakchisi kabi boshliqlar rahbarligidagi xalq harakatlari haqida hikoya qiladi.

Sak qabilalari haqida to'xtaladigan bo'lsak, ularni tarixiy manbalarga tayangan holda uch guruhga bo'lingan hoda uchratishimiz mumkin.

Kaspiy saklar Orol dengiziniing Uzboy o'zani va sharqiy hududlarida yashagan Orto koribantiy saklari- “uchi o'tkir uzun qalpoqli tigraxauda” saklaridir. Ksenofond yozgan saklar Gerodotninig orto koribantiy saklariga – tigraxaudalarga to'g'ri keladi. V.Struve kaspi qabilasiga to'xtalib, “kashtu” xalqi-kaspiylar eron tillari guruhiga kirmasligini ko'rsatadi.

Behistun yozuvlarida Doro I yurishlari munosabati bilan qayd etilgan massaget saklari Gerodot bildirgan ma'lumotlarga ko'ra, Araksning sharqida issedonlarga qarama-qarshi hududda joylashgan ko'rinadi. Strabon qoldirgan ma'lumotlarga qaraganda esa, massagetlar yurti Araks (Amudaryo) daryosining Orol dengiziga quyiladigan o'zani atrofiga to'g'ri keladi²⁷.

Agar Doro I bosib olgan o'lkalar haqidagi “Naqshi Rustam”da berilgan tartibni xronologik tarzda tushunilsa, “Midiya, Elam, Ariya, Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm... Saka xaumavarka, saka tigraxauda... dengizdan narigi yerdagi saklar” kabi ma'lumotlarda kelgan massaget saklari antik manbalardagi “So'g'd orti saklari”ga to'g'ri keladi²⁸.

²⁷ Аскарлов А. Ўзбекистон тарихи. Т., “Ўқитувчи”. 1994. 189-бет.

²⁸ Носиров Ў. Ўзбеклар шажараси. Т., “Extremum Press”. 2012. 87-88-бетлар.

Aleksandr Makedonskiy istilolari tarixiga bag'ishlab asarlar bitgan Arrian, Kvint Kursiy Ruf va Flaviylar Spitamen qo'shini tarkibidagi saklar va massagetlar juda shijoatli va qahramonona janglar olib borganini yozib qoldirishgan. Ko'p asrlar davomida saklar bilan yonma-yon yashagan massagetlar etnik qondoshligi bois ularning tili, madaniyati, urf-odatlarini bir-biriga yaqin bo'lgan.

Yunon-makedonlarning shafqatsiz urushlari natijasida ko'pgina mahalliy aholi qirilib ketadi. Qolganlari ham tog'li hududlarda kurashni davom ettiradilar. Bu o'rinda Spitamenning jasorati haqida to'xtalish joizdir. U doimo raqiblarining zaif joylarini izlar va ularga aynan o'sha joylardan zarba berar edi. Spitamen so'g'diy va baqtriyalik zadagonlar, hamda saklar bilan ittifoqlikda dushmanga qarshi kurashishga harakat qildi. Manbalarning ma'lumot berishicha mil.avv. 328-yilning oxirida Spitamen o'z vatandoshlari xiyonatining qurboni bo'ladi. Spitamen tajribali davlat arbobi va sarkarda bo'lib, u bosqinchilarni ona – yurtidan haydab chiqarishi uchun imkoniyati bo'lgan barcha tadbirni ko'rdi, choralardan unumli foydalanishga harakat qildi. U mohir sarkarda bo'lib dushmanning kichik xatosidan ham unumli foydalanar va uning tomonlarini topishga harakat qilardi. Ammo, Aleksandr harbiy kuch-qudrati jihatdan Spitamendan ustun edi²⁹.

Ammo tarix fani oldida turgan bir muammo bor, u ham bo'lsa O'rta Osiyoda ahamoniylar davlatiga qadar mavjud bo'lgan ilk davlat birlashmalari tarixini chuqur tadqiq etish masalasidir. To'g'ri, bir qator muarrixlarning yozma asarlarida yuqorida qayd etilgan katta Xorazm va Baqtriya podsholigi haqida qaydlar bor. Ammo bu manbalar xronologik tartiblarda berilmagan, uzuq-yuluq va juda qisqa xabarlardan iborat, xolos. Ularning kattagina qismi afsonaviy tavsifdadir³⁰.

1.2. Antik davr tarixining arxeologik jihatdan o'rganilishi.

Ahamoniylar imperiyasi 200 yilcha hukmronlik qilgan. Mil.avv.IV asrda jahon sahnasida yunon–makedonlarning gegemonligi ko'rina boshlaydi. Mil.avv.VII–IV asrlarda yuksak madaniyat yaratgan yunonlar, mil.avv.IV asrda Makedoniyalik Aleksandr tomonidan bo'ysundiriladi va u boshqa xalqlarni, shu

²⁹ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Т., “Янги аср авлоди”. 2012. 82-бет

³⁰ Шамсугдинов Р, Ш.Каримов. Ватан тарихи. Т., “Шарқ”, 2010.36-бет.

jumladan, ahamoniylar imperiyasini ham o'ziga bo'ysundirib, ikkinchi jahon imperiyasini tashkil etadi. Shu tariqa Aleksandr Makedonskiy tobe qilgan xalqlarga yunon madaniyati kirib kela boshlaydi.

Qadimgi davrda O'zbekiston hududida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan katta o'zgarishlar sodir bo'ldi.

O'zbekiston tarixining qadimgi davri mil.avv. VI asrdan - mil. IV gacha davom qilgan. Bu davrda O'zbekistonning moddiy madaniyati rivojiga ahamoniylar, yunon-makedonlar, kushonlar madaniyati sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

O'zbekistonda antik davr miloddan oldingi IV asrdan mil. IV asrgacha davom qilgan.

Mil.avv. 330–327 -yillarda Makedoniyalik Iskandarning O'rta Osiyoga qilgan harbiy yurishlari natijasida Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya va Sug'diyona davlatlari vayronaga aylandi. Natijada uzoq vaqtgacha bu yerlarda madaniy taraqqiyot sezilmadi. Faqatgina mil.avv. III asrda salavkiylar hukmronligi davrida biroz o'zgarishlar yuz berdi. Ular yunonlar madaniyatini O'rta Osiyoga yoyishga intilib, shu sohada bir qator islohatlarni o'tkazdilar.

Mil.avv. III asr o'rtalarida Yunon-Baqtriya davlatining qaror topishi bilan mahalliy madaniyatga ellinizm elementlarning kirib kelishi jadallashdi. Lekin O'rta Osiyoda ellinizm madaniyati tom ma'noda shakllanmadi. Uning ba'zi xususiyatlarigina kirib keldi. Bu moddiy madaniyatda kuzatildi. Kvadrat g'ishtlarni taxlash va mudofaa devorlarining qurilish uslublarida, nayza o'qining uchiga o'xshagan nishaklarning, kolonnali zallarning qurilishida, ayol terrakota haykalchalarining va ochiq shakldagi sopol idishlarning keng tarqalishida yaqqol ko'zga tashlandi.

O'sha davr madaniy yuksalishlarida Baqtriyada Dalvarzintepa, Eski Termiz, Jondavlattepa; Sug'da Afrosiyob, Yerqo'rg'on, Poykent; Xorazmda Yonboshqal'a, Ayozaqal'a, Bozorqal'a, Tuproqqal'a, Qo'yqirilganqal'a; Chochda Qanqa, Shoshtepa, Qovunchitepa; Farg'onada Axsikent, Koson, Marhamat kabi yodgorliklar, yuzlab qishloqlar shakllandi.

Shoshtepa Toshkent shahrining janubiy qismida, Jo'n kanali qirg'og'ida joylashgan. Bugungi kunda bu hudud Sergeli tumanining Shoshtepa mahallasiga qarashlidir. Yodgorlik dastlab qishloq tarzida shakllanib, mil.avv. II asrga kelib shahar qiyofasini ola boshlagan. Qang' davlatining uzoq chegarasida joylashgan bo'lib, uning shimoliy chegarasidagi strategik istehkom, hunarmandchilik markazi, ko'chmanchi chorvador aholi bilan o'troq dehqonlar o'rtasida olib boriladigan o'zaro savdo aloqalari rivojida asosiy vazifani o'tagan. Saqlanib qolgan qismining umumiy maydoni 300-250m² . Ilgari u 25 ga maydonni egallagan.

Shoshtepa yodgorligida dastlab 1896 yilda N.P.Ostroumov boshchiligida Turkiston havaskor arxeologlari qazish ishlarini olib boradilar. Toshkent arxeologik ekspeditsiyasi 1978-1979-yillarda qazish ishlarini olib boradi. Shoshtepada o'tkazilgan tadqiqot ishlari natijasida, uning quyidagi bosqichlarini aniqladi:

- 1.Shoshtepa I - miloddan avvalgi VI – IV asrlar davri bo'lib, Burg'uluk madaniyatining so'nggi bosqichi davri.
- 2.Shoshtepa II - mil.avv.II asr bo'lib, Qovunchi I madaniyatiga o'tish davri.
- 3.Shoshtepa III - mil.avv. II-I asrlar bo'lib, Qovunchi I madaniyati davri.
- 4.Shoshtepa IV - Qovunchi II madaniyatining birinchi bosqichi, ya'ni milodiy II-III asrlar.
- 5.Shoshtepa V - Qovunchi II madaniyatining ikkinchi bosqichi, ya'ni milodiy IV-VI asrlar.
- 6.Shoshtepa VI - mil. VII-VIII asrlarga oid.
- 7.Shoshtepa VII - X oxiri XII asrlardagi kulolchilik markazi sifatida faoliyat yuritgan.

Shoshtepada yo'lakli aylanma devor qoldiqlari topilgan. Markaziy bino xochsimon shaklda qurilgan va unga kirish joyida ravoqli peshtoq aniqlangan. Yodgorlik zamonasining nodir me'moriy obidalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar fikricha, mil.avv. II-I asrlarda shaharning rivojlangan davri bo'lgan.

Shoshtepadagi tadqiqotlar chog'ida tashqi savdo aloqalaridan guvohlik beruvchi ikkita nodir buyum topilgan. Ulardan biri fil suyagidan yasalgan qadahning bir bo'lagi bo'lib, uning hajmi 5-3,5 sm bo'lgan. Unda erkak kishining siymosi qabartma qilib tasvirlangan.

Ikkinchi bebaho topilma stil-suyak qalam bo'lib, milodning I-II asrlariga mansubdir. Suyak qalam 15 sm uzunlikda bo'lib, bir tomoni yozish uchun uchli qilib, ikkinchi tomoni esa o'chirg'ich uchun romb shaklidagi kurakcha shaklida ishlangan. Shoshtepadan topilgan topilmalar orasida eng diqqatga sazovorlaridan biri nuroniy mo'ysafidning surati tushirilgan terrakota bo'lib, unda o'sha zamonlarda Choch yoki Shoshda yashagan qadimgi aholining etnik qiyofasi mujassamlashgan.

Qovunchi madaniyati Burg'uluk madaniyati asosida Toshkent vohasiga kirib kelgan sarmatlar, xunnlar va boshqa ko'chmanchi xalqlarning etnik madaniyati asosida rivojlangan. Toshkent vohasi Qovunchi madaniyati rivojlanishining markazi bo'lgan. Bu madaniyat Toshkent vohasi, Sirdaryoning o'rta oqimi, Farg'onaning shimoli-g'arbiy qismlariga tarqalgan. Mil.avv.II asr-mil. VI asrlarga oiddir. Shoshtepani o'rganish jarayonida Qovunchi madaniyatining rivojlanish bosqichlari aniqlangan:

Qovunchi I- mil avv. II-I asrlar;

Qovunchi II ning ikki bosqichi aniqlangan: 1 –bosqich milodiy II-III asrlar, 2-bosqich milodiy IV-VI asrlar hisoblanadi.

Qovunchi madaniyati izlari dastlab Qovunchitepa yodgorligidan topilgani uchun shunday nom berilgan. Qovunchi I madaniyatidan ko'zacha, tovoq, qizg'ish va qo'ng'ir rang berilgan sopol idishlar topilgan. Qovunchi II ga oid yodgorliklardan quloqli xurmachalar, dastasi hayvon shaklida ishlangan turli idishlar topilgan. Umuman Qovunchi madaniyatida o'ziga xos idish qopqoqlari, ko'ralar, ikki boshli qo'chqor yoki shoxli ho'kiz boshi shaklidagi idishlar bo'lgan. Bu idishga tutatqi solingan va qurbonlik qilinadigan idish sifatida foydalanishgan. Qovunchi madaniyati aholisi dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Ular dehqonchilik ma'budalariga, olov va ajdodlar ruhiga

sig'inishgan. Mil. VI asrga kelib, o'ziga xos xususiyatlarini yo'qotib, mahalliy aholi bilan aralashib ketgan.

Qadimgi Farg'onaning poytaxt shahri yozma manbalarda Guyshuan, Ershi deb yozib qoldirilgan. Lekin uning qayerda joylashganligi masalasi munozarali bo'lgan. Bugungi kunda To'raqo'rg'on va Jomashuy orqali o'tgan Namangan – Farg'ona yo'lining bo'yida Eski Axxi (Axxikent) Farg'onaning poytaxti ekanligi aniqlangan.

Axxikentning eng pastki madaniy qatlami mil.avv. III –II asrlarga oid. Qal'a paxsa va xom g'ishtdan qurilgan mustahkam mudofaa devoriga ega bo'lgan. Devor balandligi 20 metrga yaqin bo'lib, qalinligi 10 metr bo'lgan, 5 ta darvozasi bo'lib, uning atrofi chuqur xandaqlar bilan o'ralgan.

Shahriston 35 ga maydonni egallagan. Hozirda uning 25 ga xududi saqlanib qolgan. Shahriston ikki qism- ichki va tashqi qismdan iborat bo'lgan. Ichki shahristondan 2 ta minora, tashqi shahriston devoridan 20 ga yaqin minora qoldiqlari topilgan. Milodning V-VII asrlarida shaharda aholi uylar 5-6 xonali qilib qurilgan. Xona devorlari suvalgan va turli ranglar berilgan. Har xonadonda alohida yotoqxona, omborxona, oshxona, toza suv qudug'i bo'lgan. Yotoqxonalarda devor bo'ylab keng supa, yerda esa sandalga o'xshagan isitish o'chog'i bo'lgan.

VII-IX asrning boshlaridagi arab yilnomalarida Axxikent "Fraganik" deb beriladi. IX-X asrlar shaxarning eng rivojlangan davri bo'lgan. Bu davrlarda Axxikentda zarb qilingan mis tangalarning butun Somoniylar davlati xududiga tarqalgan. IX asr o'rtalaridan Axxikent shahristonining devorlari mudofaa holatini yo'qota boshlaydi, chunki markazlashgan davlat sharoitida devorga ehtiyoj bo'lmagan.

Shaharga 14-15 km masofadan, ya'ni Kosonsoydan suv keltirilgan. Bosh vodoprovod qoldiqlari 1960- yillarda topilgan. Ichki shahristonning ikki joyidan yer osti vodoprovodi ochilgan. Ular X asrda bunyod etilgan. Uni qurishda dastlab, quruvchilar yer osti tunneli qazigan, keyin uning ichida pishiq g'ishtdan yarim gumbazsimon inshoot qurib, uning tubiga katta diametrli sopol quvurlar

yotqizganlar. Sopol quvur parchalari shahriston va rabotning hamma joyidan topilgan. U aholiga 200 yildan ziyod xizmat qilgan.

Arkning sharqiy tomonidan X-XII asrlarga oid jome masjidi topilgan. U to'rtburchak shaklda bo'lib, uning ichki qismida ayvon bo'lgan. Hovlisida hovuz bo'lib, hovuz qirg'oqlari va masjid hovlisi pishiq g'ishtlar yotqizilgan.

Tashqi shahristondan XI-XII asrlarga oid savdo do'konlari, hunarmandchilik ustaxonalari, aholining turar joylari o'rganilgan. Axsikent ustalari po'latning egiluvchanligini oshirish usullarini yaxshi bilishgan, lekin uni qattiq sir saqlaganlar. U yerda yasalgan qilichlar mashhur bo'lgan. Axsikentdan topilgan sirlangan sopol idishlar alohida diqqatga sazovordir. Ularning ba'zilarida kufiy yozuvidagi bitiklar bor, ba'zilarida afsonaviy va yirtqich hayvonlar, xonaki qushlarning rasmlari tasvirlangan. Axsikent hunarmandlari bu davrda sirli sopol idishlarni bezash va sirlashda o'ziga xos maktab yaratganlar. Uning namunalari bugungi kunda Parijdagi Luvr muzeyida saqlanmoqda.

Shahar raboti 350 gadan ziyod bo'lgan. U yerda tadqiqotlar natijasida boylarning uylari, bog'lar, hunarmandlar mahallasi va hammom topilgan.

XIII asrning 20 – yillarida Axsikent mug'ullar tomonidan vayron etiladi. Shahar xarobaga aylantiriladi. Ustalari qul qilib Mo'g'ulistonga olib ketiladi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, Eski Axsi yodgorligidan 5-6 km shimoli-g'arbda, hozirgi Yakkayigit qishlog'i o'rnida yangi shahar Yangi Axsiga asos solinadi.

Mil.avv.IV asrdan qadimgi Xorazmda markazlashgan davlat tizimining mustahkamlanishi jamiyatning ijtimoiy–iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga imkon bergan. Shahar qurilishi, me'morchilik va hunarmandchilik sohalari yuksak darajada rivojlangan. Abu Rayhon Beruniy ma'lumotiga ko'ra, bu davrda 300 dan ziyod shaharlar qurilgan. Ularning harobalari bugungi kungacha saqlanib qolgan.

O'zining qurilish uslubi jihatidan Qo'yqirilganqal'a (mil.avv. IV–III asrlar) alohida ajralib turadi. Qal'a aylana shaklda qurilgan. Uning markaziy qismida ark joylashgan. Arkning atrofi 2 qator mudofaa devori bilan himoyalangan. Tashqi mudofaa devorda har 18–26 metrdan burjlar joylashgan. Bu devor xom g'isht va paxsadan qurilgan bo'lib, qalinligi 1 metr, balandligi 7 metr bo'lgan. Bu qal'a

ibodatxona vazifasini o'tashi bilan birga rasadxona sifatida ham foydalanilgan. Bu yerdan oromiy xatiga asoslangan qadimgi Xorazm yozuvi topilgan. Yozuv qisqagina bo'lib, u xumning tepa qismiga "aspabarak", ya'ni "otda ketayotgan", yoki "ot minib turgan" ma'noni anglatadi.

Tuproqqal'a ham o'ziga xos qurilish uslubiga ega. U to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, qudratli mudofaa devoriga ega. Devor burchaklarida burjlar bor. U 17,5 gektar maydonni (500 x 350) egallaydi.

Mazkur yodgorlik XX asrning 40 – 50 yillarda S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan. Shahar markazidan katta ko'cha o'tgan bo'lib u shaharni ikki qismga bo'lib turibdi. Markaziy maydonda qasr va ibodatxonalar joylashgan. Ushbu yodgorlikdagi devorlar rasm va haykaltaroshlik namunalari bilan bezatilgan. 138 ta haykallar, saroy a'yonlari, jangchilar, ohular, sozanda ayollar tasvirlangan rasmlar topilgan.

1948-1949-yillarda teri va yog'ochga yozilgan 140 ta hujjat chiqib, ulardan 26 tasi yaxshi saqlangan. Xorazm hududidan 60 ga yaqin Kushon tangalari topilib, ular Kadfiz II, Kanishka, Xuvishka, Vasudevalar davrida zarb qilingan.

Qadimgi davrda Xorazm haykaltaroshlik maktabida mintaqa aholisining tipi aniq mahorat bilan aks ettirilgan. Haykallarda mahalliy aholining kiyim –kechagi va turmush tarzi ham aniq ifoda etilgan. Haykallari asosan Qo'yqirilganqal'a, Oqqal'a, Tuproqqal'aladan topilgan.

Tuproqqal'aning deyarli barcha zallari haykallar bilan bezatilgan. Masalan, saroyning "podsholar zali" deb nomlangan zalining devorlari uzun yaxtak, sharovar kiygan erkaklar va burmali ko'ylakdagi ayollarning haykallari bilan bezatilgan. "Harbiylar zali"ning markazida yirik haykal va uning ikki tomonida o'ziga xos bosh kiyimdagi qurolli harbiylar haykallari o'rnatilgan. Boshqa bir zalda chordana qilib o'tirgan podshohni parvozdagi xudolar tomonidan g'alaba bilan tabriklash lahzalari tasvirlangan. Saroyning yana bir zali mayxo'rlik bazmi va unda raqsga tushayotgan raqqosa va masxarabozlarning bo'rttirib ishlangan haykallari bilan bezatilgan. "Ohular zali"da esa, ohular ketidan yeldek uchib borayotgan otliq ovchilarning tasvirlari devorga bo'rttirib ishlangan. Ilgarigi

adabiyotlarda Tuproqqa'a Qadimgi Xorazmning poytaxti sifatida e'tirof qilib kelinar edi, lekin keyingi davrlarda olib borilgan tadqiqotlar tufayli uning mamlakatning diniy marosimlari o'tkaziladigan sulolaviy markazi ekanligi o'z isbotini topdi. Qadimgi Xorazm poytaxtining izlari esa, Oqshaxonqal'adan topildi.

Oqshaxonqal'a Qoraqalpog'istonning Beruniy tumani hududida, Sultonvays tog' tizmalaridan 15 km janubda joylashgan. Dastlab 1956-yilda B.V.Andrianov tomonidan o'rganilgan. 1982-85-yillarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida qal'aning asosiy hududi, qurilgan davri aniqlandi. Bu yodgorlik qadimgi Xorazm davlatining birinchi poytaxti bo'lishi mumkinligi haqida ilk taxminlar ilgari surildi. O'zFA akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Tarix, Arxeologiya va Etnografiya instituti va Avstraliyaning Sidney Universiteti o'rtasida 1994-yilda o'zaro shartnoma tuzildi. Unga binoan 1995- yildan «Qoraqalpogiston-Avstraliya» xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi u yerda o'z ishini boshladi va ularning faoliyati bugungi kungacha davom etib kelmoqda.

Oqshaxonqal'aning umumiy maydoni 47ga tashkil etib, ichki va tashqi qal'adan iborat to'g'ri to'rtburchak shakliga ega. Ichki qal'a va tashqi qal'a har biri alohida devorlar bilan o'ralgan bo'lib, ular orasida darvozalar bor. Tashqi qal'a ikki qator devorlar bilan o'ralgan bo'lib, ular orasidan o'qchilar yo'lagi mavjud. Tashqi devorlariga yaqin to'pxonalar o'rnatilgan. Qal'a handaq bilan ham himoyalangan.

Ichki qal'a himoyasiga tashqi qal'adan ham ko'proq e'tibor berilgan. Uning har tarafida 10,12 ta to'pxona bor. Shuningdek, mudofaa devorlari uch qavat qilib qurilgan. Qal'aning devori shinaklari va qo'shimcha devor bilan o'ralgan. Ichki qal'aning markazida saroy-ibodatxona joylashgan. U juda baland fundament ustiga qurilgan bo'lib, unga pandus orqali chiqilgan. Bu bino otashkada bo'lib, u juda olisdan ham ko'rinib turgan. Tepada otashkada joylashgan. Unda quyosh xudosiga bag'ishlangan mangu olov turgan. Bu binoning, ya'ni otashkadaning bo'lishi otashparastlikning davlat dini bo'lganligini tasdiqlaydi. Bu inshootni markaziy ibodatxona bo'lgan deb hisoblashadi. Ibodatxona atrofida ikki qator yo'laklar bor. 2005-2008 yillardagi arxeologik tadqiqotlar natijasida, bu

yo'laklardan hayvonlar, odamlarning portretlari topilgan. Tadqiqotchilar fikricha, bu portretlar xorazmshohlarga tegishli.

Yonboshqal'a me'moriy yodgorligi Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumani hududida joylashgan. Yodgorlik to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, uning maydoni 4 gektarga yaqin. Qal'a ikki qatorli devor bilan o'rab olingan. Balandligi 10 m, qalinligi 5m, ular o'rtasidagi yo'lakning kengligi 2,5 m. Qal'ada bitta darvoza bo'lgan. Uning old tomonida to'g'ri to'rtburchakli bir necha aylanali murakkab inshoot qurilgan. Darvoza oldida bir necha aylanma yo'lakdan iborat qilib qurilishi dushmanga qal'a ichkarisiga to'g'ri kirib borishiga imkon bermagan. Aylanma yo'lakka kirgan dushman devor ustida turgan o'qchilar zarbasiga duch kelgan. Bunday darvoza oldi murakkab mudofaa inshooti qadimgi Xorazm shaharlarining barchasi qurilgan.

Shahar ikkita mahallaga bo'lingan joylashgan. S.P.Tolstov fikricha, qal'ada mingga yaqin aholi iste'qomat qilgan. Qal'a devorlarida burjlar yo'q, lekin mudofaa uchun ko'p sonli. Shahar markazida ibodatxona shinaklar qo'yilgan. Shinaklarning qal'ani mudofaa qilishda va dushmanga zarba berishda ahamiyati katta bo'lgan. Yonboshqa'ada shinaklar nayzaga o'xshash uchli bo'lib, ikki qator qilib qurilgan. Bu qal'a Xorazm davlatining sharqiy tomonidagi harbiy chegara shaharlardan biri bo'lgan.

Mil.avv. II asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoning shimoli-sharqidan ko'chmanchi yuechji (tohar) qabilalarining kirib kelishi va bu joylardan o'rnamish natijasida yangi madaniy o'zgarishlar boshlandi. Ular tashkil qilgan ulkan Kushonlar davlati Baqtriya hududidan to Ganga daryolari hududigacha yetib borgan. Qadimgi Farg'ona hududida Dovon davlati, Xorazm va Sug'd hududlari Qang' davlati tarkibida bo'lgan. Qang' davlatiga saklar asos solgan. Mil.av II-mil. I asrlarda Qang' davlati yanada rivojlandi va Xorazm yerlari ham shu davlat tarkibiga kirgan. Qang' davlati tashkil topganda uning markazi Choch bo'lib, bu yerda poytaxt shahar Qanqa (Kangdiz) joylashgan edi. Kadimgi Choch hududida antik davrga mansub 97 ta yodgorlik topilgan bo'lib, shulardan 23 tasi shahar harobasidir.

Qanqa Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumani hududida Ohangaron daryosi hududida joylashgan. Yodgorlik mil.avv. III- mil. XII asrlarga oid. Qanqa xitoy yozma manbalarida Bityan, o'rta asrlarda Harashkent nomi bilan atalgan. Yodgorlik dastlab 1898-yilda Turkiston arxeologiya havaskorlar to'garagi a'zolari tomonidan topilgan. XX asrning 60-70 yillarida O'zbekiston respublikasi FA Arxeologiya instituti tomonidan tadqiqot ishi olib borildi. Qanqa to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilib, umumiy maydoni 200 ga. Bir necha qator mudofaa devori va xandaklar bilan o'ralgan. Shahar ark, uchta shahriston va rabotdan iborat. U yerdan kumush va mis tangalar, oltin va qimmatbaho toshlardan ishlangan taqinchoqlar, sopol haykalchalar, ostadon, mehnat qurollari va devoriy suratlar topilgan. Mil. XII asrda Ohangaron daryosi o'zanining o'zgarishi tufayli suvsiz qolib harobaga aylangan.

Qadimgi davr me'moriy obidalarida tasviriy san'at keng qo'llanilgan. Masalan, Dalvarzintepa ibodatxonasining Baqtriya xudolariga bag'ishlangan devoriy sur'atlari, Fayoztepa va Qoratepa Budda ibodatxonalaridagi devoriy suratlar, Tuproqqal'a va Yerqo'rg'on devoriy rasmlari bunga misol bo'la oladi. Lekin tasviriy san'at monumental san'atning ustuvor yo'nalishi hisoblanmagan, u haykaltaroshlik bilan bog'liq holda rivojlangan. Haykaltaroshlikning asl namunalari Shimoliy Tohariston va Xorazm madaniyatida o'zining yorqin ifodasini topgan.

Baqtriya-Toharistonda eng qadimgi haykallar kompozitsiyasi Xolchayon saroyidan topilgan. Xolchayon Surxondaryo viloyati Denov tumanida joylashgan. U ikki qismdan iborat. Arxeologik tadqiqotlar Qorabog'tepa va Xanaqotepada olib borildi. Bu yerdan 9 xonali hokim saroyi topildi. U asosan xom g'ishtdan qurilgan. Mazkur saroyning to'rt ustunli ayvoni va katta zali tasviriy san'at va haykaltaroshlik namunalari bilan bezatilgan.

Haykallarning asosiy qismi kushon podsholari (Geray)ga bag'ishlangan, ular tarkibida yuechjilar birga boshqa etnos vakillari boxtariylar ham bor. Xolchayon haykallari saroy devorining uch tomonini egallagan. Unda a'yonlar va kurash sahnasi, teatrlashgan mavzu, ya'ni og'ir gulchambarlarni ko'tarib turgan bolalar haykallari, aktyor byustlari, muzika asboblarini tutgan ayol haykallari va

boshqalar. Kompozitsiya markazida podsholik xomiysi — Afina, Gerakl, Nika (Yunon xudolari)ning siymolari tasvirlangan.

Ayritom Termizdan 18 km sharqda Amudaryo sohilida joylashgan. 1932-yilda bu yerda topilgan tosh rasmlarni M.E.Masson o'rgangan. 1933-yilda maxsus ekspeditsiya uyushtirildi. Ayritom - ibodatxona harobasi bo'lib, bu yerda asosan oxaktoshdan yasalgan haykallar topildi. Haykallarda soz chalayotgan ayollar tasvirlangan, budda diniga oid haykallar ham topilgan. XX asrning 60-70-yillarida O'zbekiston San'atshunoslik ekspeditsiyasi tadqiqot ishlarini davom ettirdilar. Natijada fort, buddizm dini kompleksi, qabr va baqtriya yozuvi bo'lgan haykallar guruhi topilgan.

Baqtriyada buddizm davlat dini darajasiga ko'tarilgach, Budda haykaltaroshlik san'ati ma'naviy hayotning mazmuniga aylandi. Bularni Dalvarzintepa, Fayoztepa, Ayritom, Qoratepa va boshqa yodgorliklarda ko'rishimiz mumkin. Baqtriya–Toharistonda buddizmni qabul qilgan mahalliy ustalarning professional maktabi shakllanadi.

Shimoliy Baqtriyaning eng katta ibodatxonasi Termiz yaqinidagi Qoratepa yodgorligi hisoblanadi. Yodgorlik dastlab B.Ya.Staviskiy tomonidan o'rganilgan. Bugungi kunda bu yerda turli soha mutaxasislari, yapon olimlari tadqiqoti ishlarini olib borishmoqda. Bu yerda sakkizdan ortiq inshootlar majmuasi ochib o'rganilgan. Har bir bunday inshoot yo'lak – ayvonlar o'rab turgan to'g'ri to'rtburchakli katta hovli va yer ostiga qurilgan inshootlardan iborat. Xonalardan Budda haykali, buddizmga xos inshoot-stupalar topilgan.

Barcha stupalar bir xil qurilgan. Ularning asosi to'rtburchak bo'lib, uning ustiga silindirsimon inshoot qurilgan, uning usti gumbazsimon tarzda bo'lgan. Ustiga yog'och yoki toshdan yasalgan langar o'rnatilgan. Langarda toshdan yasalgan bir necha soyabon bo'lgan. Soyabonlar muqaddas daraxt ramzi bo'lib, buddistlar uni chatra deb atashadi. Shu daraxt soyasi ostida Budda o'zining g'oyalarini ishlab chiqqan. Yer ostiga qurilgan inshoot bilan yer ustiga qurilgan inshoot bir biri bilan bog'liq bo'lgan. Ular zinalar orqali birlashtirilgan. Qoratepa ibodatxonasining devorlariga diniy mazmundagi rasmlar va ibodatxonani qurilishda homiylik qilgan insonlarning rasmlari solingan. Rasmlar katta mahorat bilan chizilgan va o'sha zamonning diniy mafkurasini o'zida aks ettiradi.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida Qoratepaning shimoliy qismidan mahobatli stupa topildi. Uning faqatgina tagkursisi saqlanib qolgan.

1968-yili yuqoridagi ibodatxonadan 2-3 km shimoli-sharqda Fayoztepa ibodatxonasi topilgan, hozirda u to'la o'rganib chiqilgan. Fayoztepa vihara tipidagi ibodatxona ekanligi isbotlangan. U uch qismdan iborat bo'lib, har birida hovli bo'lgan, ularning atrofida uylar joylashgan. Ibodatxonaning markaziy qismida diniy marosimlar o'tkazilgan. Ikkinchisi qismi monastir, uchinchisi esa xo'jalik ishlariga mo'ljallangan inshootlar bo'lgan. Markaziy qismda yaxshi saqlangan stupa topilgan. Markaziy qismning ayvonidan loy va ganchdan yasalgan Buddha, uning safdoshlaribadilatvalarning haykallari topilgan. Ular qizil rang va tilla suvi bilan bezatilgan. Devorlarga diniy marosim rasmlari tasvirlangan bo'lib, ularda hayotiylik izlari ko'rinadi. Oq marmar va alebastrodan ishlangan haykallar ham topilgan. 1972-yilda bu yerdan oq marmartoshdan yasalgan muqaddas Badxi daraxti tagida o'tirgan Buddha va tik turgan ikki ruxoniy haykali topilgan.

Qoratepa va Fayoztepa rasmlari Hindistondagi ibodatxonalar qurilishi va uning rasmlaridan farq qiladi, lekin Sharqiy Turkiston va Uzoq Sharqdagi ibodatxona va rasmlarga yaqin. Shuning uchun ham buddizm O'rta Osiyodan mazkur hududlarga tarqalgan degan xulosaga kelingan. Lekin, Xitoy va Olmon olimlari Buddha dini Sharqqa O'rta Osiyo orqali kirib bormagan, degan fikrdalar.

1971-yilda Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanida Dalvarzintepa yodgorligi ochildi. U ma'muriy bino qoldiqlari, kulollar yashaydigan xonalar tadqiq etildi. Dalvarzintepadan ikki yarusli xumdonlar ham topilgan. Topilgan ashyolar kulolchilik yuksak darajada bo'lganligini ko'rsatadi.

1972-yilda Dalvarzintepadan 115 ta oltin buyumlardan tashkil topgan xazina topilgan. Mil. II-III asrlarga oid mazkur xazinadan sirg'a, bilakuzuk, kamarband, uzuk, oltin shodasi, sopol idishlar, haykalchalar, taqinchoqlar, tangalar, shaxmat donalari topilgan.

Dalvarzintepa atrofida ibodatxonalar bo'lib, ularning harobalaridan buddizmga oid turli haykallar topilgan. Dalvarzintepadan ancha uzoq bo'lmagan joyda Kushon davriga oid qabriston ochildi. Unda odam suyaklari, sopol idishlar, taqinchoqlar,

tangalar olindi. Uning eng pastki qatlamida murdalar xumga ko'milgan. Tozalangan suyaklarning borligi uni zardushtiylarga xos ekanligini bildiradi. Bunga o'xshash qabristonlar Tojikistondagi Tulhar, Ko'kqum, Oriqtov, Turkmanistondagi Babashov qabristonlaridir. Tulhar qabristonidagi 350 go'rdan 219 tasi o'rganilgan. Bu yerdagi go'rlar laxad va yorma shaklida. O'liklarni yasatib, boshlarini shimolga qaratib ko'mganlar. Qabrlarga sopol idish, taqinchoq, qurollar ham ko'yilgan.

1972-yilda Angor tumanidan 16 gektarni egallagan Zartepa shahar harobasi topildi. Uylarning devorlari paxsadan qilingan. Aholi yashash xonalarining maydoni 4-15 m² ni tashkil qiladi. Bu yerdan ibodatxona, Buddaning oltin suvi yuritilgan boshi va gavdasi topilgan. Buddistlarning saqlanib qolgan stupasidan bitta oltin plastinka ko'zacha va yunon tangalariga taqlid qilib ishlangan Vasudeva I tangalari (ular 500 dan ortiq tanga) topildi. Shuningdek, Zartepaning 100 metrli mudofaa devori ham o'rganildi. Topilgan ashyolar Zartepaning mil.av I asrga mansub ekanligini ko'rsatadi. Qadimda mazkur shaharning 4 ta darvozasi bo'lgan. Mudofaa devorlarining 9 metr, IV-V asrlarda esa 2 metr bo'lgan.

O'zbekistonning qadimgi davrida amaliy san'at ham yuksak darajada rivojlanadi. Xususiyl muhr, tamg'alar, mahalliy hokimlik nishoni gemma va tangalar zarb qilina boshlandi. Diniyl va dunyoviy harakterga ega bo'lgan har xil terrokota haykalchalari ham ishlab chiqila boshlandi. Terrakota haykalchalarda ayollar aks ettirilgan bo'lib, ular ikki xil tuzilishda bo'lgan. 1) Tik turgan holda, o'ng qo'li ko'krak ostida, chap qo'li qorni ustida qo'yilgan. 2) Tik turgan holda bo'lib, qo'llarida oyna ushlab turgan holda tasvirlangan. Terrakota haykalchalarda maxalliy etnik tiplar va mahalliy ust- boshlarda tasvirlangan. Mil.avv. II asrlardan boshlab, otliq chavondozlar tasvirlangan terrakota haykalchalar keng tarqalgan. Bular yuejilar faoliyati bilan bog'liq edi.

Bu davrda mulkiyl tabaqalanish protsessi ham jadal sur'atlar bilan kechdi. Natijada ilgari markazlashgan shahar hokimiyati nufuzi pasayib, dehqonzodalar ta'siri oshib bordi.

II – Bob. Moddiy va yozma manbalarda antik davr siyosiy, iqtisodiy – ijtimoiy munosabatlarning aks etishi va ularning qiyosiy tahlili.

2.1. Antik davr siyosiy tarixining qiyosiy tahlili.

Antik dunyo tarixida makedoniyalik Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr, Makedoniya podshosi Filip II ning o'g'li) olamga dovrug' taratgan jahongir hukmdorlardandir. Yunoniston, Kichik Osiyo, Arabiston hududlarini qudratli harbiy kuch bilan egallab, o'sha joylarda o'z hukmronligini o'rnatgan Iskandar mil. avv. 331-yil oktyabrida Gavgamela yonida (shimoli-sharqiy Mesopotomiya) bo'lgan jangda Eron qo'shinlarini engadi. Eron podshohi Doro III Iskandardan uzil-kesil yengilib, mamlakat sharqiga, Baqtriyaga qochadi. U yerda esa Baqtriya satrapi Bess tomonidan o'ldiriladi. Tez orada Iskandar qo'shini ortiqcha qarshiliksiz Baqtriya poytaxti - Baqtra (hozirgi Balx) shahrini hamda Aorn, Drapsak singari mustahkam qal'alarni egallaydi. Ko'p o'tmay Bess qo'lga olinib, qatl etiladi. Mil. avv. 328-yilda Xorazm shohi Farasman Baqtradagi Iskandar qarorgohiga tashrif buyuradi va ittifoqchilik bitimi imzolanaadi. Shu boisdan Iskandar Xorazmga yurish qilmaydi. Mil. avv. 329-yilda Oks (Amu) daryosi sohiliga etib kelgan Yunon qo'shinlari daryodan o'tib Navtaka (hozirgi Qashqadaryoning Kesh-Shahrisabz vohasi)ga kirib boradi. Endigi harakat yo'nalishi Sug'diyona paytaxti - Marokanda (Samarqand)ga qaratiladi. Rim olimi Kursiy Rufning ma'lumot berishicha, Iskandar armiyasi Marokandani uncha qiynalmasdan va kam talofat bilan ishg'ol etgan va «shaharda o'zlarining garnizonlarini qoldirib, yaqin atrofdagi qishloqlarni yondirib va vayron etib», so'ngra esa shimoli-sharqqa qarab harakatlanganlar. Biroq Marokandadan so'ng yunon-makedon qo'shinlarining yurishlari nihoyatda qiyin va murakkab kechdi. Chunki ular endilikda mahalliy xalqning qudratli qarshiligiga duch keldi. Iskandar bosqinidan, uning yurtga solayotgan qirg'ini-yu, zulm, asoratidan ko'zi g'aflat uyqusidan ochilgan, erk, ozodlik qadrini har narsadan afzal bilgan ona zamin kishilari bir yoqadan bosh chiqarib, ajnabiy istilochilarga qarshi harakatga keladi. Mil. avv. 329-yil kuzida Sug'diyonada boshlanib, O'rta Osiyo mintaqasining boshqa hududlarida keng aks sado bergan xalq qo'zg'oloni yurtimiz ozodligi

tarixida chinakam yangi sahifa yozgan. Iskandar tajovuzi va zulmiga qarshi ko'tarilgan bu ommaviy harakatga so'g'd xalqining mard o'g'loni Spitamen boshchilik qildi. So'g'diyona va Baqtriyada mahalliy xalqlarning chuqur ishonchini qozongan, katta harbiy salohiyat sohibi Spitamen xalqdan lashkar tuzib, dastlab Iskandarning Marokandada qoldirib ketgan harbiy garnizoniga hujum qilib uni yanchib tashlaydi. Bu xabar yerli aholiga katta ruhiy quvvat bag'ishlab, uning ajnabiylarga qarshi faol kurashiga turtki beradi. Iskandar o'z qo'shinining bir qismini qo'zg'olonchilarga qarshi Marokandaga yo'llaydi. Bu davrda Iskandarning o'zi Yaksart (Sirdaryo)ning chap sohilidagi shaharlar va aholi turar joylarini bo'ysundirish uchun og'ir janglar olib borayotgan edi. Ajoyib jang taktikasini qo'llagan Spitamen Iskandar lashkari Marokandaga yaqinlashib kelayotganini eshitgach, darhol shaharni tark etib, Politimet (Zarafshon) daryosining quyi oqimi tomon jang qilib chekinadi. So'ngra bu yerdagi dashtli ko'chmanchilarning otliq askarlari bilan qo'shilib kutilmaganda qarshi hujumga o'tadi. Bundan sarosimaga tushgan yunon qo'shini katta talofatga uchrab, qolgan-qutgan jangchilari bilan shaharga chekinadi. Spitamen Marokandani qamal qiladi. Bundan xabar topgan Iskandar Sirdaryo bo'yidagi hujum harakatlarini vaqtincha to'xtatib, o'zi qo'shinga bosh bo'lib Spitamenga qarshi yurish boshlaydi. U Marokandaga etib kelganida Spitamen kuchlari allaqachon bu joyni tark etib, So'g'diyonaning cho'llik qismiga chekingan edi. Iskandar Spitamendan o'ch ololmagach, butun qahri-zahrini Zarafshon aholisiga qaratadi. U Spitamen kuchlarini ta'qib qilib, Marokandadan cho'lli hududlar tomon borar ekan, yo'lyo'lakay 120 mingdan ziyod tinch aholini qirib tashlagani tarixiy manbalarda uchraydi. Biroq u mahalliy xalqlarni o'ziga uzil-kesil bo'ysundira olmaydi. Iskandar Doroning yuz minglab muntazam lashkarlariga qarshi jang olib borishdan ko'ra Spitamen boshchiligidagi qo'zg'olonchilarga qarshi kurashish qiyin ekanligini tushunib yetadi. Negaki, yerli aholi o'zining har bir qarich tuprog'i, daryo-ko'li, qir-adiri, qoyasi uchun dushman bilan jon berib, jon olishib kurashgan. Iskandar armiyasining yengilmasligi to'g'risidagi afsonalar ham bizning yurtimizda barham topdi. Oxiri shunday bo'lib chiqdiki, O'rta Osiyo yerlarini kuch, qurol bilan yenga olmasligiga ko'zi yetgan

Iskandar aqlu zakovat, hiyla yo'li bilan ish tutib, mahalliy aholining yuqori tabaqasi, zodagonlari bilan umumiy til topishga, yerli xalqning milliy udumlari, urf-odatları, marosimlarini qabul qilishga majbur bo'ladi. Shunday yo'l bilan So'g'diyona ulug'laridan Oksiart, Xoriyen degan mahalliy aslzodalar uning tomoniga o'tadi. Iskandarning Oksiartning go'zal qizi Raxshanak (Roksana)ga uylanishi esa qarindoshlik aloqalarining kuchayishiga xizmat qiladi. U xalq qaxramoni Spitamenni qo'lga tushirib, uni jismonan yo'q qilishda ham mahalliy zodagonlar xizmatidan foydalanadi. Spitamenning tez orada o'ldirilib, uning boshi Yunon podshohiga tortiq qilinganligi fakti ham qo'zg'olonchi kuchlar o'rtasida birlikning bo'lmaganligi alomatidir. Shunga qaramay ajnabiy bosqinchilarga qarshi xalq g'alayonlari 327-yil boshlariga qadar davom etdi. Garchand Spitamen boshchiligidagi keng ommaviy xalq harakati oxir-oqibatda mag'lubiyatga uchragan bo'lsada, u ulug' ajdodlarimizning mardlik jasoratini, elu-yurt hurligi, ozodligi yo'lidagi fidoyiligini yorqin namoyon etdi. Shunday qilib, muttasil uch yil davom etgan shiddatli janggu jadallardan so'ng Iskandar Baqtriya, Sug'diyona va Usturshonaning faqat bir qisminigina itoat ettirib, bu hududlarga o'z ishonchli odamlarini, o'ziga sodiq sug'dlik Oropiyni Sug'diyona hokimi etib tayinlab, o'zi mil. avv. 327-yilda Hindiston tomon qo'shin tortadi. Yunon-Makedon qo'shinlari O'rta Osiyo yerlarida shu qadar holdan toyib, o'zining jangovorlik qobiliyatini yo'qotdiki, buning oqibatida ular shimoliy Hind yerlariga arang kirib bordilar. Bu holatni tan olgan Iskandar tez orada Hindistondagi urush mavsumini tugatib, ortga, ikki daryo oralig'idagi Bobil shahriga qaytib ketishga buyruq beradi. Antik dunyo olimlarining yakdil ta'kidlashicha, Yunonlar podshosining bu buyrug'i ruhan cho'kkan uning butun qo'shinida katta qoniqish bilan qarshi olingan ekan. Shunday qilib, butun yer yuzini egallab, dunyo hukmdori bo'lishga da'vo qilgan Iskandarning sharqiy yurishlari oxir - oqibatda ko'zlangan yuksak natijalarsiz tugadi. Uning o'zi mil. avv. 323-yilda Bobilda hayotdan ko'z yumadi.

Vatanimiz xalqlarining salavkiylarga qarshi ozodlik kurashi muvaffaqiyatli yakun topgach, Baqtriya salavkiylar saltanatidan ajralib chiqadi va mil.avv. 250-yilda uning davlat mustaqilligi qayta tiklanadi. Uning tarkibiga Baqtriya (hozirgi

Qashqadaryo, Surxondaryo, Tojikiston janubi), Sug'diyona (Zarafshon vohasi), hozirgi Afg'onistonning shimoliy, Turmanistonning sharqiy yerlari – Marg'iyona ham kirgan. Bu davlatning Yunon-Baqtriya deb atalishining boisi shundaki, uning markazi Baqtriya hududlari edi, hukmdorlari esa asosan yunon aslzodalari bo'lgan. Mustaqil Yunon-Baqtriya davlati unga asos solgan, o'zini shoh deb e'lon qilgan Diodot I, uning o'g'li Diodot II davrlarida bir muncha yuksaladi. Bu jarayon Yevtidem I va u boshlab bergan yevtidemiylar sulolasi boshqaruvi davrida yanada kuchayadi. Baqtriya davlati sarhadi keyinchalik Sharqiy Turkiston, Sharqiy Eron, shimoliy-g'arbiy Hindiston, Sind o'lkasi hududlarigacha kengaygan. Uning xo'jalik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti ham ancha yuksak darajaga ko'tarilganligidan guvohlik beradi. Shimoliy Afg'onistonning Oyxonim, Tojikistonning Ko'hnaqal'a, Qayqobodshoh, Surxondaryo viloyatining Dalvarzintepa, Zartepa va boshqa joylarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar qadimda bu shahar - qal'alarda to'laqonli hayot tarzi hukm surganligidan, ularda savdo-sotiq, hunarmandchilik va boshqa kasb turlari ravnaq topganligidan dalolat beradi. Shu boisdan ham Yunon olimi Yustin Yunon-Baqtriyaning ming shaharli davlat deb bejiz ta'riflamagan. Bu davlatning poytaxti Baqtra nomi bilan atalgan. Bu shahar xalqaro karvon savdosi - Buyuk Ipak yo'lining muhim chorrahasida joylashganligidan, unda savdo-hunarmandchilik sohalari bir muncha rivoj topgan. Mamlakatning Eron, Xitoy, Hindiston, singari o'sha davrning rivojlangan davlatlari bilan olib borgan savdo-tijorat munosabatlari asosan mana shu shahar orqali o'tgan.

Bundan tashqari bu mamlakatda turli xil don ekinlari, serunum yerlarida uzumzor bog'lar ko'p bo'lgan, sharbatli mevalar etishtirilgan. Bu hol unda dehqonchilik madaniyati o'sganligidan, sun'iy-sug'orish inshootlari tizimi keng tarmoq otganligidan yaqqol dalolatdir. Garchand Yunon-Baqtriya davlatida quldorlik munosabatlari mavjud bo'lsa-da, biroq unda erkin dehqon jamoalari mehnati salmoqli rol o'ynagan. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarining nisbatan tez o'sishiga, shaharlar hayotining rivojlanishiga muhim turtki bergan.

Miloddan avvalgi II asr o'rtalariga kelib bir qator ichki va tashqi vaziyat taqozosi bilan yuz bergan keskin o'zgarishlar oqibatida Yunon-Baqtriya davlati tushkunlikka yuz tutdi. Buning muhim sabablaridan biri - qo'shni Parfiya davlatining kuchayib ketishi va o'z hududlarini Yunon-Baqtriya hisobiga kengaytirishga intilishi bo'ldi. Bu hol Yunon-Baqtriya davlatini mushkul ahvolga solib qo'ydi. Tez orada Hind yerlari hamda Sug'diyona uning tarkibidan ajralib ketdi. Mamlakatning shimoliy va sharqiy hududlariga esa sharqdan kelgan ko'psonli katta yuechji qabilalarining hujumi kuchayib, ular asta-sekin Farg'ona, Surxondaryo hududlari sari siljiy boradi. Buning natijasida 120 yilcha mustaqil davlat sifatida mavjud bo'lgan Yunon-Baqtriya davlati halokatga uchradi.

O'rta Osiyoda salavkiylar hukmronligining inqirozi natijasida mil. avv. III asr o'rtalarida vujudga kelgan mustaqil davlatlardan yana biri Parfiyadir. Bu davlatga parn Girkaniya (Kaspiy) dengizining janubiy-sharqida yashagan qabilasining yo'l boshchisi Arshak asos solgan. Arshakiylar sulolasining uzoq hukmronligi uning nomi bilan bog'liq. Bu davlatning ilk poytaxti hozirgi Ashxobod shahri yaqinidagi qadimgi Nisodir. Bu shahar xarobalaridan topilgan juda ko'plab noyob topilmalar, asori atiqalar qadimgi Parfiyaning o'z davrida ancha taraqqiy etgan, moddiy va ma'naviy madaniyati yuksalgan davlatlardan biri bo'lganligidan davlat beradi. Mohir sarkarda, usta diplomat Arshak Parfiyani dovrug'li davlatga aylantirish bilan birga uning hududlarini kengaytirishga ham salmoqli hissa qo'shgan. Arshak avlodlaridan Mitridat I davrida (mil. avv. 170-138 y) bu davlat salavkiylar va Baqtriyaning katta hududlarini o'ziga qo'shib oladi. 155-yilda Midiya podsholigi bosib olinadi. Mil. avv. 147 yilda esa mashhur Bobil shahri ham egallanadi. Mitridat II davriga kelib (mil. avv. 123-88) Parfiya davlati qudrati benihoya kuchayib, u Rim imperiyasining Sharqdagi asosiy raqobatchisiga aylanadi. Davlat hududlari g'arbga tomon kengayib borganligidan, uning poytaxti ham Ktezafon shahriga ko'chirilgan. Mil. avv. 40 - yillarda Kichik Osiyo, Suriya va Falastin yerlari ham Parfiya qo'l ostiga o'tgan. Biroq tez orada Rim imperiyasi bu hududlarda o'z ta'sirini qayta tiklashga muvaffaq bo'lgan. Buning sababi Parfiya davlati ichida vujudga kelib kuchaya borgan mahaliy boshboshdoqlik,

sulolaviy nizolar, so'ngra ko'chmanchi alanlarning xujumlari - bular pirovard oqibatda uning ichki zaiflashuviga, siyosiy beqarorligining kuchayishiga sabab bo'ldi. Boz ustiga to'xtovsiz davom etgan tashqi va ichki urushlar mamlakatni holdan toydirib, uni halokatga duchor etdi. Milodning 207-222-yillarida Parfiya hukmdori bo'lgan Vologes V davrida saltanat ikkiga, ya'ni Mesopotomiya va Midiya davlatlariga ajraladi. Xuddi shu davrda Fors hududlarida yangidan vujudga kelib qudrati oshib borayotgan Eron sosoniylari davlati tez orada Parfiyaga hal qiluvchi zarbalar berib, uning erlarini o'z tarkibiga kiritadi. Bu milodning III asri 20-yillarida sodir bo'ladi.

O'rta Osiyo yunon-makedon istilosi va salavkiylar sulolasi hukmronligidan keyin mil. avv. III asr boshida hozirgi Toshkent vohasida va Sirdaryoning o'rta va shimoliy oqimi hududlarida Qang' davlati vujudga kelgan. Bu davlatning etnik tarkibini turli qabila, elatlar tashkil etgan. Unda yetakchi qang'arlardan tashqari katarlar, kamarlar, toharlar, apasshaklar, asiylar va boshqa qabila, urug'lar ham yonma-yon istiqomat qilganlar. Mil. avv. II-I asrlar Qang' davlatining eng kuchaygan davri edi. Shu davrlarda Qang' bir qator viloyatlarni o'z tobeligiga bo'ysundirgan edi. Xitoy solnomalarida bu viloyatlarning 5 ta nomi tilga olinadi. Bular – Susye (Kesh-Shahrisabz), Fumu (Zarafshon vodiysi), Yuni (Toshkent viloyati), Gi (Buxoro vohasi), Yuegyan (Urganch shahri va viloyati). Mil. avv. II-I asrlarda Orol dengizining shimoliy sharqidagi Yantsay (Hozirgi Qizil O'rda) va Yan yerlari ham qang'arlar tobeligida bo'lgan. Shunday qilib, o'z davrida Qang' davlati O'rta Osiyoda yirik davlatga aylangan edi. Bu davlatning yirik shaharlari sirasiga Aris daryosi sohilidagi O'tror va hozirgi Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumani hududida joylashgan Qanqa (Qang'iz) shaharlari kiradi. Bu shaharlar o'sha davr shaharsozligining yuksak namunalarini o'zida mujassamlashtirgan. Qang' davlatini boshqarishda podshohning roli va o'rni katta bo'lgan. Shu bilan birlikda davlat va jamiyat hayotiga oid ko'plab muhim masalalarni hal etishda urug' va qabila oqsoqollaridan iborat Oliy Maslahat kengashining mavqei ham alohida o'rin tutgan. Binobarin, podshoh o'z ichki va tashqi siyosatini yuritishda kengash bilan

maslahatlashgan. Viloyat boshliqlari turkiy maqomda jobu yoki yobg'ular deb atalganlar. Ular o'z hududlarini boshqarishda bir muncha mustaqillikka ega bo'lib, markaziy hokimiyatga boj to'lab turganlar. Qang' hukmdorlari mintaqadagi siyosiy vaziyatga ham faol aralashib, undagi muvozanatni saqlash bobida izchil siyosat olib borganlar. Shaharlarda savdo-sotiq, hunarmanchilik rivoj topgan. Mahaliy hunarmandlar tayyorlagan urush qurollari (qilich, xanjar, oybolta, o'tkir uchli nayzalar va b.), xo'jalik asbob-uskunalariga talab - ehtiyoj katta bo'lgan. Qoramosor, Qurama va Chotqol tog'larida temirchilik, miskarlik hunarini rivojlantirish uchun kerak miqdordagi mis, temir, singari ma'danlar qazib olingan. Toshkent atrofidagi Oqtepa 1, Oqtepa 2, Choshtepa, Qovunchitepa, shuningdek O'tror, Sirdaryo havzasida topilgan ko'plab noyob dalillar Qang' davlatida yuksak moddiy va madaniy hayot tarzi mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Buni «Qovunchitepa madaniyati» nomi bilan tarixga kirgan qadimgi madaniyat namunalari ham isbot etadi. Qang'aliklar chorvachiligi va yilqichiligi to'g'risida ham alohida fikr aytish mumkin.

Xitoyliklarni maftun etgan zotdor, tulpor otlar xuddi mana shu hududda va qo'shni Dovon yaylovlarida boqilgan. Xitoy solnomachilari Qang'da chorva mollarining mo'l-ko'lligini, sut-qatiqlarning g'oyatda mazali va to'yimlilikini ta'rif etganlar. Qang'a davlatining xalqaro karvon savdosidagi mavqei ham baland bo'lgan. Bunda Buyuk ipak yo'li alohida o'rin tutgan. III asr o'rtalarida Qang' davlati zaiflasha boshladi. Qang' davlatidan birinchi bo'lib Xorazm ajralib chiqdi. Xorazm davlatining poytaxti dastlab hozirgi Tuproqqal'a shahar harobalarining o'rnida bo'lgan. Xorazmshoh Afrig' Kat shahrini qayta tiklab, mustahkam qasr va binolar qurdirib, 305-yilda poytaxtni Katga ko'chiradi. Kumush tangalar zarb ettirib, davlatni har jihatdan mustahkam boshqaradi.

Dovon nomi bilan mashhur bo'lgan davlat Vatanimiz hududidagi qadimgi davlatlardan sanalsa-da, biroq uning haqqoniy tarixi xususida hozirgacha to'la ma'lumotlar topilmagan. Xitoylik elchi Chjan Tsyen yozma manbalarida Farg'ona vodiysidagi davlatni Dovon (Da-yuan) deb atagan. Vaholanki, Farg'ona vodiysi ham ajdodlarimizning madaniy, o'troq hayoti kechgan, o'z davlatchiligiga ega

mustaqil hudud sifatida Yunon-Baqtriya, Qang'a singari qadimgi davlatlar bilan tenglasha olishiga hech bir shubha yo'q. Buni mil. avv. II asr oxirlarida (128-yilda) bu o'lkaga tashrif buyurgan Xitoy elchisi Chjan Syan yozib qoldirgan esdaliklar ham isbot etadi. Manbalarda aytilishicha, bu davrda Farg'onada 300 ming nafar aholi yashagan. Uning 70dan ziyod katta-kichik shaharlari bo'lib, ularda savdo-sotiq, hunarmandchilik yuksak darajada rivojlangan. Mamlakat poytaxti Ershi (hozirgi Andijon viloyatning Marhamat tumanida joylashgan) o'z davrining obod, ko'rkam va aholisi gavjum shaharlaridan sanalgan. Qadimgi O'zgan, Koson ham Dovonning eng mashhur shaharlari sirasiga kirgan. Dovon hududida 10 dan ortiq yirik dehqonchilik manzilgohlari mavjud bo'lib, ularda yerli mirishkor aholi sholi, bug'doy va boshqa dehqonchilik ekinlari yetishtirish bilan shug'ullangan. Bularga Aravonsay, Oqbo'ra, Sultonobod, Qo'rg'ontepa, Andijonsoy, Moylisoy, Ulug'nor, Yilg'insoy, Shahrixonsoy kabi dehqonchilik makonlarini nisbat berish mumkin. Xitoy Farg'ona davlatining boy-badavlat turmushiga, uning boyliklariga ko'z olaytirib, unga qarshi bir necha bor katta qo'shin tortib bostirib kelgan. Chunonchi, mil. avv. II asr oxirlarida (104-yilda) va milodiy 1 asrning 80-yillarida xitoyliklar Dovon davlatini o'zlariga bo'ysundirish uchun u bilan shiddatli urushlar olib borganlar. Dovonliklar o'z qo'shnilari Qang'a va Kushonlarning harbiy yordami bilan yurt mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo'ladilar. O'rta Osiyo hududlarini kuch bilan egallash mumkin emasligini tushungan Xitoy tomoni shundan so'ng Dovon davlati bilan shartnoma tuzadi. Bunga ko'ra ikkala davlat o'rtasida diplomatik va savdo-sotiq munosabatlarini yo'lga qo'yish, jumladan, Farg'onaning uchqur arg'umoqlarini Xitoyga sotishga kelishib olinadi. Farg'ona hududi O'rta Osiyo ijtimoiy siyosiy hayotida sodir etilgan keyingi muhim o'zgarishlar jarayonida ham o'zining nisbiy mustaqilligini bir muncha saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan.

Mil.av. II asrning ikkinchi yarmida, xitoy manbalarida ta'kidlanishicha, Sharqiy Turkiston hududlarida yashovchi yuechji qabilalari o'z qo'shnisi – xunnlarning tazyiqiga uchrab, ularning siquviga bardosh berolmay g'arbga tomon siljiydilar. Yuechjilar Issiqko'l atrofida sak qabilalari bilan to'qnashib ularni janubiy-g'arb

tomonga suradilar. Biroq yuechjilar usun qabilalari zarbasiga uchrab janubga siljib mil. avv. 130-yillarda Sug'diyona hududiga kirib keladilar. Yuechjilar, Xitoy tarixchisi Chjan Syan ta'kidlashicha, Sug'diyonadan Baqtriyaga yuradilar va Baqtriyadagi yunonlar hukmronligini ag'daradilar. Xitoy manbalarida ta'kidlanganidek, yuechjilar beshta siyosiy xonadonga mansub edilar: Guyshuan (Kushon), Xyumi, Shuanmi, Xise, Dumi. Ularning har biri qariyb 100 yilcha alohida-alohida siyosiy kuch, hokimlik bo'lib, yagona hukmdorga bo'ysunmagan holda faoliyat yuritadilar. Yunon manbalarida esa bu qabilalar toxarlar deb qayd etiladi. Milodning I asrida Kushonlar xonadoni boshlig'i Kudzula Kadfiz (Kiotszyukyu) barcha yuechji (tozar) qabilalarini birlashtiradi va kushon podsholigi (Tozariston) ga asos soladi. Kudzula Kadfiz qo'shni hududlarga yurish uyushtirib Sug'diyona, Marg'iyona, Hindistonning shimoli-g'arbiy qismini zabt etadi. Shu tariqa, yirik davlat - Kushonlar saltanati tashkil topadi. Kudzula Kadfiz keyinchalik Qobul va Qandahor hududlarini egallaydi. Bu davrda mamlakat poytaxti Dalvarzintepa (Surxondaryoning Sho'rchi tumanida) shahri bo'lgan. Kadfiz 1 davrida zarb etilgan tangalarda «Kudzula Kadfiz Yabg'u» degan yozuvlar uchraydi. Uning o'g'li Vima Kadfiz podsholigi davri ham muhim o'zgarishlar bilan bog'liq. Bu davrga kelib shimoliy Hindistonning bir qator muhim hududlari egallanadi. Vima Kadfiz mamlakatda pul islohoti o'tkazib, vazni 8 gr og'irlikdagi oltin tangalarni zarb qildirib muomalaga chiqartiradi. Bu esa xalqaro savdoda Kushonlar davlati obro'sining ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Xuddi shu vaqtda Rim imperiyasi bilan savdo-sotiq aloqalari kuchayadi.

Kushonlar saltanatining eng kuchayishi Kanishka (78-123 yy.) davriga to'g'ri keladi. Bu paytga kelib Hindistonning Peshovar, Panjob, Kashmir va boshqa markaziy hududlari, shuningdek, Farg'ona, Sharqiy Turkistonning ancha qismi uning davlati tarkibiga kirgan edi. Bu davrda mamlakat poytaxti ham Peshovarga ko'chirilgan. Kanishka mamlakat ichki hayotida muhim ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy o'zgarishlarni amalga oshirish barobarida tashqi siyosatda ham g'oyatda uddaburonlik bilan faoliyat yuritadi. Uning din sohasida o'tkazgan islohoti muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Uning davrida diniy tenglik va

bag'rikenglikka alohida e'tibor berilgan. Garchand bu vaqtda ma'budalar ichida xudo Nana alohida ulug'lansa-da, biroq mamlakatning turli hududlarida mahalliy aholi oldindan e'tiqod qilib kelgan boshqa dinlar erkinligi va dahlsizligi saqlanib qoldi. Hatto zarb etilgan oltin va kumush tanga pullarda Budda xudosi bilan bir qatorda mahalliy xalqlar e'tiqod qo'yib kelgan xudolar - Anaxita, Mitra, Veretragna, Vaxsh va boshqalarning ham tasvirlari tushirilganligi bunga yorqin dalildir. Bu davrda zarb etilgan tangalar avvalgidek yunon tilida emas, balki mahalliy kushon - baqtriy tilida chiqarilganli alohida e'tiborga loyiqdir. Bunday uzoqni ko'zlab oqilona yuritilgan siyosat Kushonlar davlatida turli aholi qavmlari, ijtimoiy guruhlar o'rtasida tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan. Biroq Kanishkadan so'ng hokimiyatga kelgan Vasishka, Xuvishka, Vasudevalar davriga kelib Kushonlar davlati bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablar orqasida asta-sekin inqirozga uchray boshlagan. Ayniqsa III asr o'rtalariga kelib qo'shni davlat - Parfiya o'rnida yangidan vujudga kelib, tobora kuchaya borgan Eron sosoniylari hukmdorlarining to'xtovsiz olib borgan urush harakatlari natijasida Kushon davlati ziflashib, hududlari kichrayib bordi. Ayni paytda, 353-yilda Sug'diyonaga Yettisuv va Sharqiy Turkistondan o'z hukmdori Grumbat boshchiligida xioniylar nomli ko'chmanchi qabilalar bostirib kiradilar. Xioniylar Kushonlarga zarba berib, Sirdaryodan to Amudaryo havzasigacha bo'lgan hududlarda o'z hukmronligini o'rnatadilar. Shu tariqa, janubiy-g'arbdan sosoniylar, shimoliy-sharqdan xioniylar zarbasiga uchragan Kushonlar saltanati oxir-oqibatda halokatga uchradi.

Kushonlar sulolasi hukmronligi davri ko'hna tariximizda katta iz koldirgan ekan, buni uning tarkibiga kirgan har bir hudud yoxud elatlar hayoti misolida yaqqol ko'rsa bo'ladi. Uning dastlabki poytaxti Dalvarzintepa (Surxondaryo), unga tutash Xalchayon (Denov), Zartepa, Fayoztepa, Qoratepa, Ayritom (Termiz atroflari) va boshqalar Kushonlarning eng rivoj topgan savdo sotiq, hunarmandchilik sohalari o'sgan gavjum shaharlari hisoblangan.

O'lkamizda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati nihoyatda taraqqiy etgan, ko'plab sug'orish inshootlari barpo etilgan. Surxondaryo

vohasida Eski Angor, Zang, So'g'ddagi Darg'om kanallari shular jumlasidandir. Vatanimiz hududida shaharsozlik, me'morchilik, haykaltaroshlik, kulolchilik singari hunarmandchilik turlari yuksak darajada taraqqiy etgan. Buni ko'hna Tuproqqal'a, Ayritom, Termiz, Axsikent shaharlari o'rnida olib borilgan tarixiy tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Ayni chog'da Kushonlar davrida moddiy va ma'naviy madaniyat yonma-yon tarzda rivojlanib borgan, deb xulosa chiqarishga to'la asoslar bor.

Mil. av. II asr boshlarida Dovon va Qang' davlatlariga tashrif buyurgan Xitoy elchisi va sayyohi Chjan Syan safaridan so'ng Xitoy bilan O'rta Osiyo davlatlari o'rtasidagi diplomatik va savdo-sotiq aloqalari yangi bosqichga ko'tariladi. Elchining bu yurtda ko'rgan-kechirganlari, ayniqsa uzumchilik, vino tayyorlash, rangli shishalar ishlab chiqarish, zargarlik, zotdor, uchqur otlar Xitoy hukmdorlarini qiziqtirgan. Bu esa ikki o'rtadagi aloqalarga keng yo'l ochgan. Xitoy O'rta Osiyoning zotdor otlari, rangli shishalari, zargarlik mollari, la'liga xaridor bo'lsa, ayni chog'da Xitoydan yurtimizga ko'proq ipak va ipak mollari, chinni buyumlar, choy mahsulotlari keltirila boshlangan. Shuningdek, Hindistondan ip gazlama, ziravor va dorivor mahsulotlar, guruch, mushk anbar va shu kabi narsalar keltirilgan. Ayni chog'da o'zbek diyoridan bu mamlakatlarga qishloq xo'jalik mahsulotlari, mevalar, chorva mollari, otlar, gilamlar, zargarlik mahsulotlari, nafis junli matolar chiqarilgan.

Amir Temur va uning avlodlari zamonida davlatlar o'rtasidagi o'zaro savdo-tijorat aloqalari yangi hududiy kengliklar kasb etib bordiki, bu bir tomondan, yurtimizning iqtisodiy-madaniy, ma'naviy yuksalishini ta'minlagan bo'lsa, ikkinchidan, uning xorijiy ellar, xalqlar bilan yaqinlashuvi, hamkorligiga kuchli turtki berdi. Bu esa Buyuk ipak yo'li shuhratining yanada ortishiga olib keldi. Prezidentimiz I.A Karimov ta'kidlaganidek, «Amir Temurning tarixiy xizmati yana shundan iboratki, uning harakatlari tufayli Osiyo va Yevropa davlatlari tarixda birinchi marta yagona jug'rofiy-siyosiy makonda ekanliklarini his etdi».³¹

³¹ Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. Asarlar 4-jild, T., O'zbekiston, 1996, 342-bet.

Shu tariqa, Amir Temur va temuriylar davrida Buyuk ipak yo'lining dovrug'i beqiyos katta bo'lganligi, u mamlakatlarning umumiy yuksalishiga, bir-birlari bilan yaqindan bog'lanishlariga jiddiy ijobiy ta'sir o'tkazganligiga shohid bo'lamiz. Buyuk ipak yo'li XVI asrdan e'tiboran o'z ahamiyati va rolini yo'qotib, tushkunlik sari yuz tutdi. Bu hollarni qanday sabablar bilan izohlash mumkin. Tabiiyki, bu jarayon o'z-o'zidan, bir lahzada to'satdan sodir bo'lib qolgani yo'q, albatta. Bizning nazarimizda, Buyuk ipak yo'li ahamiyatining so'nib, pasayib borishi bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablar orqasida, tarixiy jarayonlarning murakkab, ziddiyatli kechishi davomida yuz berganligi shubhasiz. Birinchidan, Amir Temur va temuriylar sulolasining pirovard oqibatda chuqur inqirozga yo'liqishi va tarix sahnasiga boshqa hukmron sulolalarning, chunonchi, Shayboniyxonlar, Ashtarxoniylar sulolasining chiqishi hamda ularning boshqaruv usulining g'oyatda murakkab kechganligi, markaziy hokimiyatning kuchsizlanib, mamlakat hududlarining tarqoq holatga uchrashi o'z qobig'iga o'ralishi va hokazo hollar bu hududning tashqi dunyodan tobora ajralishiga bois bo'ldi. Ikkinchidan, Movarounnahrda kelib o'rnashgan o'zbek urug'lari, ularning amir-beklari, sultonlari o'rtasida hokimiyat talashib olib borilgan o'zaro jangu jadallar, doimiy qon to'kishlar natijasida o'lka tobora iqtisodiy bo'hronlarga duch kela bordi, siyosiy beqarorlik avj oldi. Mamlakat tashqi davlatlar bilan aloqalar bog'lash, iqtisodiy, savdo-sotiq bobida hamkorlik qilish imkoniyatlaridan mahrum bo'ldi. Uchinchidan, ilg'or Yevropa olimlari, sayyohlari tomonidan XV-XVI asrlardan e'tiboran boshlangan buyuk geografik kashfiyotlar, bularning natijasida jahonning turli qutblari tomon yangi, qulay suv yo'llarining ochilishi, shu jumladan, Hindiston, Xitoy va boshqa sharqiy-janubiy mamlakatlarga tomon shunday yo'llarning kashf etilishi, bular Buyuk ipak yo'li shuhratining pasayishi va so'nib borishga olib keldi. O'zbekistonning milliy istiqbolga erishuvi va o'z mustaqil davlatchiligiga ega bo'lishi uning oldiga keng istiqbol ufqlarini ochib berdi. Mustaqillik tufayli O'zbekiston yangidan yuz ochib, jahon afkor ommasining nigohiga tushdi. Ayni chog'da u BMTning teng huquqli a'zosi sifatida turli ijtimoiy tuzumdagi davlatlar bilan o'zaro foydali, manfaatli asoslarda hamkorlik

qilish, aloqalar bog'lashga muvaffaq bo'ldi. Ayniqsa bunda Buyuk ipak yo'li an'analarini yangidan tiklash borasida hozirda jahon miqyosida olib borilayotgan davlatlararo harakatda O'zbekistonning alohida tashabbus ko'rsatayotganligi boisi ham mana shundandir. Zero, qadimdan Sharq bilan G'arbni bir-biriga bog'lagan, xalqaro savdoning qaynoq, tutash nuqtasi hisoblangan O'zbekiston hududi va uning qadimiy shaharlari bugun ham mustaqil davlatimizni keng xorijiy davlatlar bilan bog'lovchi muhim vosita rolini o'ynamog'i ayni muddaodir. «Qadim zamonlarda Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan Buyuk ipak yo'li, -deb ta'kidlaydi Yurtboshimiz, - O'zbekiston hududi orqali o'tgan. Bu yerda savdo yo'llari tutashgan, tashqi aloqalar hamda turli madaniyatlarning bir birini boyitish jarayoni jadal kechgan. Bugungi kunda ham Yevropa va Yaqin Sharqdan Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga olib boradigan yo'llar shu yerda kesishadi»³². Shu boisdan ham mustaqil O'zbekiston Buyuk ipak yo'li an'analarini butun choralar bilan tiklash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berib kelmoqda. Shuningdek, YUNESKO rahbariyati bilan hamkorlikda «Ipak yo'li- muloqot yo'li» mavzusida o'tkazilayotgan amaliy tadbirlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning so'nggi paytlardagi faol hatti-harakatlari Sharq va G'arbga hamda Janubga bevosita chiqish uchun qulay yo'llarga ega bo'lish, o'z mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish va davlatlararo keng muloqotlarga erishishga qaratilgan. O'zbekiston o'z milliy manfaatlarini ustuvorligidan kelib chiqib, dunyoga chiqishga, xalqaro bozor uchun raqobatbardosh mahsulotlar, mollar ishlab chiqarishga hamda G'arb bilan Sharq o'rtasida azaldan davom etib kelgan muhim vositachilik - ko'priklilik rolini o'ynashga faol intilmoqda. U shu olijanob maqsadlar yo'lida faol izlanishlar olib bormoqda. Bu esa O'zbekistonning xalqaro maydondagi pozitsiyasini yanada mustahkamlab, uning nufuzi va obro'sining ko'tarilib borishga xizmat qiladi.

2.2. Antik davrda kechgan ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning qiyosiy tahlili.

³² Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., O'zbekiston, 1997, 227-228- betlar.

Makedoniyalik Iskandar yurishlari natijasida keng miqyosda boshlangan ellinizm madaniyatining kirib kelishi Baqtriya, Parfiya va So'g'diyona shaharlari, hunarmandchiligi va badiiy - amaliy san'atiga katta ta'sir ko'rsatdi. Yozma manbalar Iskandar nomi bilan bog'liq uchta shahar: Aleksandriya Oksiana (Oks bo'yidagi Iskandariya), Aleksandriya Marg'iyona (Marg'iyona Iskandariyasi), Aleksandriya Esxata (Uzoq yoki Chekkadagi Iskandariya) haqida ma'lumotlar beradi. Ulardan tashqari "katoykiyalar" deb nomlangan grek harbiylari manzilgohlari ham mavjud edi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, makedoniyalik Iskandarning shaharsozlik faoliyati katta ahamiyatga egadir. Plutarx bergan ma'lumotlarga ko'ra u 70 dan ziyod shaharlarga asos solgan. Arxeologik tadqiqotlar natijalari esa boshqacharoq xulosalar beradi. Shuning uchun ham Iskandarning shaharsozlik faoliyati xususidagi ilmiy baxslar hanuzgacha davom etmoqda.

Jumladan, V.Tarn, A.S.Hofman va ba'zi bir boshqa olimlar bu raqamga shubha bilan qaraydilar va u ancha oshirib ko'rsatilgan degan fikrni ilgari suradilar. V.Tarnning hisob - kitoblariga qaraganda, Iskandar o'ntadan ortiq, aniqrog'i, 13 ta shaharga asos solgan. Bu jarayonda u Tigr daryosining sharqiy tomonida shaharlar asos solishga alohida e'tibor bergan.

Ammo, G.A.Koshelenko tomonidan amalga oshirilgan yozma, arxeologik va epigrafik ma'lumotlarni qiyosiy tahlil asosida o'rganish V.Tarn va uning tarafdorlari xato qilganliklarini ko'rsatdi. Arxeologlar hali grek — makedon shaharlarining hammasini kashf etmaganliklari, ko'pgina hududlar arxeologik jixatdan yaxshi o'rganilmaganini e'tiborga olsak, kelgusida antik an'analarni tasdiqlovchi qo'shimcha ma'lumotlar olish mumkin.

Strabonning ma'lumotlariga ko'ra, Iskandar Baqtriya va So'g'diyonada 8 ta shaharga, Yustinning ma'lumotlariga qaraganda esa 12 ta shaharga asos solgan. Ammo, bu ma'lumotlar arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlari bilan tasdiqlanmagan va ko'pgina ilmiy munozaralarga sabab bo'lgan.

Biz O'rta Osiyo hududlarida Makedoniyalik Iskandar uchta: Oks

Iskandariyasi, Iskandariya Esxata (Chekkadagi Iskandariya) va Marg'iyonadagi Iskandariya shaharlariga asos solganligi haqida ma'lum ma'lumotlarga egamiz.

Salavkiylar davrida O'rta Osiyo shaharlashgan holati va ichki tuzilishi haqida ma'lumotlar yetarli emas. Salavkiylar davlatining sharqida ko'pgina mahalliy shaharlar ma'lum darajada mustaqillikka ega bo'lganlar. Odatda salavkiylar podshosi bosib olgan shaharga uning maqomi belgilangan kartiya bergan. Ba'zan bunday kartiya shaharning mavjud maqomini tasdiqlagan. Shuningdek mustaqil shaharlar ham bo'lgan. Ammo, bunday siyosat O'rta Osiyoda ham ma'lum darajada olib borilgan, degan fikrni tasdiqlovchi ma'lumotlar hozircha yo'q.

Grek — Baqtriya davrida gullab—yashnagan shaharlardan yana biri Kir asos solgan va manbalarda Kiresxata, Kurushkada, Kiropol deb eslatiluvchi shahardir. Ko'pchilik tadqiqotchilar bu shaharni O'ratepa o'rnida desalar, ayrimlari Nurtepa o'rnida joylashgan bo'lishi ham mumkin degan fikrni ilgari suradilar.

Qadimgi Xo'jand va uning atroflarida olib borilgan arxeologik qazish ishlari ma'lum natijalar berdi. Xo'jand qal'asidagi ko'p sonli shurflardan birida mil. avv. IV asrga oid paxsa devor qoldiqlari topilgan. Ushbu devor yirik to'rtburchak g'ishtlardan qad ko'targan. Ko'hna shahardagi asosiy madaniy qatlamlar mil. avv. IV —II asrlarga oiddir. Sirdaryo bo'ylarida amalga oshirilgan ko'p yillik qidiruv va qazish ishlari natijasida makedoniyalik Iskandar davriga mansub boshqa shahar markazlari topilmaganligi tufayli, tadqiqotchilar bunday shahar markazlari faqat hozirgi Xo'jand shahri o'rnida bo'lishi mumkin, degan xulosaga keldilar.

Antiox I shaharni ham o'z ichiga olgan butun Marv vohasini uzun devor bilan o'ragan. Ahmoniylarning aynan qaysi qal'asi Erkqal'ami yoki Govurqal'ami, Iskandarning nomi bilan nomlangani aniqlanmagan. Nima bo'lganda ham, Selevka I va Antiox I davrlarda Marv vohasi to'liq devor bilan o'ralganligi aniq. Bu devorning qoldiqlari hozirgacha qisman saqlangan. Ta'kidlash joizki, o'z vaqtida S.A.Vyazigin ham bu yerda juda katta mudofaa tizimi barpo etilganini ta'riflagan edi.

Antik davr O'rta Osiyo shahar madaniyati rivojlanishning eng yorqin xususiyatlari- tasviriy san'at bilan pul zarb etilishi natijasida madaniyat va moliya -

iqtisod ishlarining taraqqiy etishidir. Ta'kidlash joizki, o'lkamiz hududlarida tovar-pul munosabatlarining qandaydir ko'rinishi salavkiylar davridayoq paydo bo'ladi. Misol uchun, Taxi Sangindan 4 ta, Termizdan 3 ta, Kampirtepadan 2 ta, Marvdan 6 ta, Samarqand atroflaridan 5 ta Antiox I davriga oid (mil. avv. 280 — 268 yy.) tangalar topilgan. Nisbatan ko'proq topilma tangalar grek-baqtriya davriga oid bo'lib, ular Diodot, Yevtidem, Demetriy, Antimax, Geliokl davrlarida zarb etilgan.

Umuman olganda antik davrga kelib O'rta Osiyoda tanga pullarga asoslangan tovar-pul munosabatlari rivojlandiki, bu holat antik davr shaharlari taraqqiyotini belgilovchi asosiy belgi hisoblanadi, Grek-makedon davrida yirik shaharlar tovar-pul munosabatlariga tortilgan bo'lsa, kushonlar davriga kelib bu jarayonda qishloqlar ham ishtirok eta boshlaydi. Bu xolat esa o'z navbatida, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning yuksalib borayotganidan dalolat beradi.

Xullas, antik davr O'rta Osiyo jamiyati taraqqiyotida shaharlarning ahamiyati ulkan bo'ldi. Tadqiqotlarning qiyosiy tahlilidan xulosa chiqaradigan bo'lsak, ellin dunyosida shahar ma'lum vazifalarni (ma'muriy, siyosiy va diniy markaz, savdogarlar va hunarmandlar faoliyat ko'rsatadigan joy, madaniy va harbiy markaz va boshq.) bajaruvchi mustahkamlangan manzilgohgina emas, balki jamoa o'zini o'zi boshqarish organlari, zamonaviy mulkdorlarning alohida shaklini o'zida jamlagan, erkin fuqarolarning teng huquqligini nazarda tutuvchi ijtimoiy tuzilmaning muhim bo'g'ini ham bo'lgan deyish mumkin. Bunday shaharlar (balki shahar-polislar yoki shahar-davlatlar) ellin madaniyati ta'sirida bo'lgan Sharqda ham keng tarqalgan.

Antik davr har qanday O'rta Osiyo shaharlarining bir muhim tarkibiy qismi - shahar atrofidagi qishloqlarning mavjudligi edi. O'rta Osiyoda shaharlarning umumiy muammolariga va shaharlarning maqomiga jiddiy e'tibor berilishi natijasida shahar bilan uning atrofidagi qishloqlarning o'zaro munosabatlari masalasi tadqiqotchilar e'tiboridan birmuncha chetda qoldi. Tadqiqotchilar oldida turgan shaharlar tarixi bilan bog'liq dolzarb masalalardan biri ham aynan shu muammo hisoblanadi.

Kushon davri Shimoliy Baqtriya shaharlarining shakllanish jarayoni, ularning

tarhi va tuzilishi ko'p hollarda uning asosiga, ilgari aholi yashagan manzilgohga bog'liq bo'lgan. Bu holatni arxeologik ma'lumotlar asosida o'rgangan. E.V.Rtveladze o'z asoslari bilan farqlanuvchi shaharlarning quyidagi uchta guruhini ajratadi:

1. Ahmoniyalar davriga borib taqaladigan, qadimgi asosga ega bo'lgan ko'p qatlamli shaharlar (Jondavlattepa, Qalaimir, Hayitobodtepa va balki Termiz);
2. Grek-Baqtriya yoki Salavkiylar davriga borib taqaladigan shaharlar (Dalvarzintepa, Kayqubodshoh, Saksonoxur, Termiz, Shahrinav, Xolchayon);
3. Yuechji yoki Kushon davrida paydo bo'lgan shaharlar. Kichkina shaharlarning asosiy qismi va Budrach, Zartepa, G'arovqal'a (Yavan), Kaltaminor (Denov yonida), Shohtepa va boshq.

Antik davr Shimoliy Baqtriya shaharlari hayotida shahristonlar ham muhim ahamiyatga ega edi. Antik davr shahristonlarining ildizlari bronza davri manzilgohlarining mustahkamlanmagan qismi va ahmoniy-baqtriya davrining ilk shaharlari asosiy turar-joylarini devorlar bilan o'rab olingan davrga borib taqaladi. Ildizlari jihatdan ular bir-birlari bilan chambarchas bog'liqligi aniq. Ammo, bajargan vazifasi nuqtai nazaridan ular turlicha bo'lgan. Xususan, dastlabki davr shaharlari shahristoni faqat turar-joy qismi va ehtimol ibodatxonadan iborat bo'lgan bo'lsa, keyinchalik, ya'ni, Kushon davriga kelib turar-joylar, hunarmandchilik ishlab chiqarish, mafkuraviy va savdo-sotiq bir yerga to'plangan joyga aylanadi.

Antik davr Shimoliy Baqtriya shaharlari antik davrda ma'muriy harbiy-siyosiy va mafkuraviy markaz bo'libgina qolmasdan savdo-sotiq va hunarmandchilik markazlashgan hudud ham hisoblangan. Chjan Syanning mil. avv. II asrning o'rtalariga oid ma'lumotlariga ko'ra, Daxya (Baqtriya) axolisi savdo-sotiqda nixoyatda mohir, mamlakatning poytaxtida esa har xil mahsulotlarga boy bo'lgan bozor mavjud edi.

Viloyatdagi xalqaro savdo aloqalarining yo'nalishlari va taraqqiyoti haqida ba'zi arxeologik topilmalar guvohlik beradi. Bular Hindistondan keltirilgan-taroq, shaxmat donalari, fol ochadigan suyak, tilla buyumlarning bo'laklari, fil suyagidan

yasalgan narsalar (Dalvarzintepa); Rimdan-shisha (Xolchayon), marmar bosh (Ilontepa), maskaron (maxsus qiyofani o'zgartiruvchi buyum, me'morchilikda ishlatilgan, Shahrigulgul), Neron tangasi (sestertsii, Xayrobodtepa); Misrdan-taqinchoqlar va tumorlar, ular Shimoliy Baqtriyaning qabristonlaridan topilgan (Boysun, Bandixon, Kampirtepa, To'pxona), papirus (Kampirtepa); Xitoydan-ipak matolar parchalar (Kampirtepa, Xolchayon), oynalar (Ayritom, Barattepa, Janubiy Tojikiston qabristonlari); Parfiyadan-tangalar; Xorazmdan aylana naqsh solib ishlangan idish (Kampirtepa) kabilardir.

Kuyukqal'ada arxeologik qazish ishlari olib borildi, natijada yodgorlikning vujudga kelishi milodiy VII-VIII asrlarga oid ekanligi aniqlandi. Lekin qal'aning mudofaa tizimi maxsus o'rganilmagan. Ammo, yodgorlikning rejasida devor va burjlari izlari ko'zga tashlanadi. Amudaryoning o'ng sohili hududidagi qishloq jamolarining joylashish tarkibi va shakllanish jarayonining o'rganishda Dingiljada arxeologik qazish ishlari natijasida olingan ashyolar muhim manba bo'lib mil.avv IV- milodiy IV asrlarda mudofaa tizimiga ega bo'lganligi aniqlangan. Tuqqal'ada qazish ishlari olib borilishi natijasida yodgorlik yarim aylana burjlarga ega bo'lgan mudofaa devor bilan o'rab olingan bo'lib, unda madaniy hayot mil.avv. IV-XI asrgacha davom etganligi aniqlangan. Katta Oybug'irqal'ada arxeologik tadqiqot ishlarini olib borildi, yodgorlik mil.avv. V milodiy IV asrlari bilan belgilangan. Amudaryoning o'ng sohilidagi Ayozaqal'a 1,2,3, Yonboshqal'a, Qo'rg'oshinqal'a yodgorliklari atroflaridagi hududlarida qurilgan ko'psonli kichik hajmdagi atroflaridagi arxeologik qazish ishlari olib borilgan, natijada ularning rejalashtirilishi, uy-joylarining tuzilishi to'g'risida noyob ma'lumotlar to'plangan. Lekin tadqiqotda manzillarning vujudga kelishi va mudofaa tizimi rivojlanish jarayoni yoritilmagan. Arxeolog tadqiqotchilar Mizdahqonda tadqiqot ishlarni olib borishib, natijada uning tuzilishi, umumiy hajmi haqida ma'lumotlar olishib, yodgorlik mil. avv. III asrdan-XIV asrga oid ekanligini aniqladilar. Lekin shaharning qadimgi va ilk o'rta asrga oid mudofaa tizimi o'rganilmagan. Xorazmning ilk o'rta asrda siyosiy poytaxti bo'lgan Katqal'ada qazish ishlari olib borildi, natijada shaharning topografik tuzilishi, mudofaa tizimiga oid materiallar

olindi. Shunday qilib, Xorazm vohasi qishloq va shaharlarning mudofaa inshootlari tarixini o'rganishning uchinchi davrida Amudaryoning o'ng va so'l sohili hududidagi qadimgi va ilk o'rta asrlarga mansub bo'lgan arxeologik yodgorliklarda keng miqyosda arxeologik tadqiqotlar olib borilishi natijasida yangi ashyolar to'plandi. Ayniqsa, YA.G'.G'ulomov tadqiqotlarida Xorazmning qadimgi va ilk o'rta asr qishloq va shaharlarining geografik o'rni, rejalashtirilishi, sug'orish inshootlari sohili atroflarida joylashishi va ularning mudofaa tizimi to'g'risida ilmiy ma'lumotlar egallagan.

Xorazm vohasi shaharlari mudofaa tizimi tarixini o'rganishning to'rtinchi davrida Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari Quyi Aqchadaryo hududida arxeologik tadqiqotlarini davom ettirdilar. Shu bilan birga, shu tarixiy davrdan boshlab, O'zbekiston Respublikasi FA Qoraqalpog'iston filiali xodimlari Amudaryoning o'ng va so'l sohilidagi yodgorliklarida arxeologik qazish ishlarini boshladilar. Tadqiqotchi Yu.P.Manilov Katqal'a shahrida arxeologik qazish ishlarini davom ettirib, IX-XIII asrlarga mansub bo'lgan mudofaa devor o'rgangan. Shuningdek, Ayoqzal'a II yodgorligida arxeologik qazish ishlari olib borilib, natijada yodgorlikning rejasi tuzildi va mudofaa tizimi tarixiga doir muhim manbalarga ega bo'lingan. Qishloq shaklidagi Qurg'oshin qal'ada arxeologik qazish ishlari olib borib, asosiy e'tiborni shaharning mudofaa tizimini o'rganishga qaratgan, uni mil.avv. IV asrga oid ekanligini qayd etgan. Qo'yqirilgan qal'adan olingan ashyolar Xorazm vohasi aholisi qadimgi davrdan boshlab, aniq fanlarni to'la o'zlashtirib olib, uning natijasi qishloq va shaharlarning me'moriy-topografik jihatidan ishlab chiqilishi va mudofaa tizimi bilimlarida o'z mazmunini namoyon qilgan. "Qo'yqirilgan qal'a" asarida yodgorlikning tuzilishi, rejalashtirilishi, mudofaa tizimi arxeologik ashyolar asosida yoritilgan va qadimgi shaharlarning mudofaa tizimi tarixiga doir muhim ma'lumotlarni bergan. Shubhasiz, bu ma'lumotlar Xorazm vohasining qadimgi shaharlar tarixi, harbiy texnikasi, me'morchilik, rejalashtirish bilimlarining rivojlanish jarayonini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Ye.E.Nerazik Tuproqqal'ada qazish ishlarini olib bordi, natijada uning tarixiga oid yangi ashyolar olishga muvaffaq bo'ldi.

M.Mambetullaev Xiva tumanidagi Tuproqqal'ada arxeologik qazish ishlari olib bordi, natijada yodgorlikning rejalashtirilishi, mudofaa tizimi o'rganildi. Yodgorlikning rejasi ikki qatorli mudofaa devor, to'rtburchakli burjlari to'g'risida ma'lumot olinib, uning qurilishi mil.avv. IV-V asrlarga oid ekanligi belgilangan. Tuyamo'yin suv ombori qurilishi munosabati bilan, shu hududda joylashgan tarixiy obidalar bo'lgan Kaparas, Yelharas, Jig'arband, Sadvar qal'alarida qazish ishlari olib borildi, natijada qadimgi va ilk o'rta asr tarixiga doir noyob ashyolar olingan. Janubiy Xorazm hududida joylashgan Sadvar yodgorligida arxeologik qazish ishlari olib borildi, natijada shaharning qurilishi mil.av. IV asrda amalga oshirilganligi, madaniy hayot esa milodiy XIII asr boshlarigacha davom etganligi isbotlangan. Shu bilan birga, Kaparas yodgorligida arxeologik qazish ishlari olib borildi, tadqiqot natijalari mustahkamlangan qal'a mil. avv. IV asrda qurilgan bo'lib, milodiy VII asrigacha hayot davom etgan. Jigarband yodgorligida arxeologik tadqiqotlar olib borildi, me'moriy-topografik tuzilishi, devor va burjlari to'g'risida ma'lumot berib, o'rta asrga oid ekanligini aniqlangan. M.Mambetullaev M-Sh.Kodirniyazov rahbarligidagi arxeologik guruh Voyanganda qazish ishlarini olib bordilar, natijada yodgorlikning mudofaa tizimiga oid noyob ashyolar olinib, uning qurilishi mil.avv. IV asrga oid ekanligi aniqlangan. Miloddan avvalgi II-III asrlarida shaharning to'rt tomoni kvadrat g'ishtli devor bilan o'rab olingan. M.Mambetullaev Shumanay hududidagi Katta Oybug'irqal'ada arxeologik qazish ishlarini olib bordi, natijada uning rejalashtirilishi ishlab chiqildi, mudofaa tizimiga doir materiallar olindi. Yodgorlikning vujudga kelishi mil. avv. V asrga, uning yuqori madaniy qatlami milodiy X-XII asrlarga oid ekanligi qayd qilingan. Tadqiqotchilar Yu.A.Rapoport, A.N.Gertman Tuproqqal'ada qazish ishlarini davom ettirib, natijada shaharning umumiy tuzilishi, mudofaa tizimiga, doir ashyolar olingan. Afsuski, shaharning ichki qismi va mudofaa tizimi hozirgacha ilmiy asosda o'rganilgan emas. Ayoqqal'a-1, Burliqal'alarda va Shovot Katqal'asida arxeologik qazish ishlari olib borildi, natijada Xorazm fortifikatsiyasi tarixiga oid yangi ma'lumotlar olindi. G.Xo'janiyozov Xorazm vohasining shimoli-g'arbiy qismida joylashgan Aqchungul yodgorligida qisman arxeologik

tadqiqot ishlarini olib bordi va miloddan avvalgi 1-milodiy IV asrlarga oid ekanligini aniqlagan. Qizilqal'ada arxeologik qazish ishlari olib borildi, natijada mudofaa devori va burji to'g'risida ma'lumotlar asosida yodgorlikning vujudga kelishi miloddan avvalgi II-I asrga, uning inqirozi esa milodiy XIII asr oxiriga to'g'ri kelishi aniqlangan. Tadqiqotchi Ellikqal'a tumanidagi Kichik Qirqqizqal'ada arxeologik tadqiqot ishlarini olib borib, qal'aning rejalashtirilishi, mudofaa tizimi tarixiga doir ashyolar olishga muvaffaq bo'ldi. Shaharning vujudga kelishi mil.avv. IV asrga, uning inqirozi esa milodiy III asrga oid ekanligi aniqlandi. Shovot tumani hududidagi Tuproqqal'ada arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan, natijada yodgorlikning umumiy rejalashtirish, mudofaa devori va burjlari to'g'risida yangi ashyolar olindi. Amudaryoning o'ng sohili hududida afrig'iylar hukmdorlarining yozgi qarorgohi bo'lgan Tuproqqal'ada uzluksiz ravishda olib borilgan arxeologik qazish ishlari natijasida milodiy III asrga mansub ashyolar olinib, uning natijalari maxsus tadqiqotlarda o'z mazmunini topgan. Shu bilan birga, Toshxirmontepa, Aqshaxon, To'qqal'a, Kuyukqal'a yodgorliklarida olib borilgan arxeologik qazish ishlari natijasida qadimgi va ilk o'rta asrlar tarixiga doir ashyolar olindi. Amudaryoning so'l sohili hududidagi Olmaotishgan-2, Katqal'a (Shovot), Hazorasp yodgorliklarining qadimgi davrga mansub mudofaa tizimi, Mizdahqon Gaurqal'asi arkida; Bug'roxonda olib borilgan qazish ishlari natijasida olingan ashyolar qadimgi va ilk o'rta asr shaharlarining rivojlanish tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, to'rtinchi davrda Xorazmning qadimgi qishloq va shaharlarning me'moriy-topografik tuzilishi, ularning hajmi, mudofaa tizimining rivojlanish bosqichlarini ilmiy asosda o'rganilishiga qaratilgan.

Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi Xorazm viloyati hududida Olmaotishgan-2, Toshqal'a-2, yodgorliklarida qazish ishlari davom ettirildi, natijada qadimgi davr tarixiga doir yangi ashyolar topildi. Amudaryoning o'ng sohilidagi Aqshaxon qal'asida arxeologik qazish ishlari olib borildi, natijada mudofaa tizimi tarixiga oid yangi ashyolar olindi. Shu bilan birga, arxeologik tadqiqotlar Tuproqal'a(Shovot), Katqal'a(Shovot), Olmaotishgan-2 yodgorliklarining mudofaa tizimida qazish

ishlari olib borildi. M.Mambetullaev, M.To'rabekovlar Kuyukqala, Mizdahqon yodgorliklarida arxeologik tadqiqot ishlarini olib bordilar, natijada qadimgi mudofaa tizimi tarixiga doir ashyolar olindi. Xorazm Ma'mun akademiyasi va YA.G'.G'ulomov nomidagi Arxeologiya institutining birlashgan ekspeditsiyasi Hazoraspning shimoli-g'arbiy burchagida qazish ishlarini olib borishi natijasida nayza o'qi uchli shinakli burjlarga ega bo'lgan dastlabki paxsa devor o'rganildi. Shu bilan birga, Hazoraspning g'arbiy qismidagi devorni kesish ishlari olib borildi, natijada temuriylari davriga oid ma'lumotlar olingan. Katqal'a mudofaa devorida qazish ishlari olib borilib, qadimgi va ilk o'rta asrlarga oid ashyolar olingan.

Amudaryoning o'ng sohili hududidagi qishloq va shaharlarda arxeologik tadqiqotlarning olib borilish darajasi jihatidan bir-biridan farq qiladigan ashyolar olindi. Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan qishloq va shaharlarining me'moriy-topografik, devor va burjlarini rasmga olish bilan umumiy ma'lumotlarni berish bilan kifoyalangan. Bizning nazarimizda, birorta qishloq va shaharlar mudofaa devorining me'moriy tuzilishini o'rganish maqsadida maxsus arxeologik qazishma ishlari olib borilmagan.

Amudaryoning o'ng va so'l sohilidagi hudularida mavjud bo'lgan sug'orma dehqonchilik tarixiy-xo'jalik vohalarining ijtimoiy-iqtsodiy va etnomadaniy markazlari bo'lgan qishloq va shaharlarda keng miqyosda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan noyob ashyolar mil.avv. VI asr o'rtalaridan-milodiy IX asr boshlarigacha bo'lgan tarixiy jarayonda ajdodlarimizning xo'jalik turmush tarzi, sug'orma dehqonchilik madaniyati, ko'p tarmoqli hunarmandchilik taraqqiyoti asnosida, shaharsozlik madaniyati, davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi, tarixiy-siyosiy vaziyat taqozosi bilan paydo bo'lgan mudofaa inshootlarining rivojlanish tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa.

Odatda, tarix, birinchi navbatda, xalq tarixi birlamchi manbalarga asoslanadi. Xalq tarixining manbalari - moddiy madaniyat va yozma manbalar bo'lib, ulardan olingan ilmiy ma'lumotlar asosida xalq tarixi yaratiladi. Etnogenez va etnik tarixni o'rganmay, ya'ni aynan olingan xalqning kelib chiqishini o'rganmay turib, xalq tarixini to'la qonli yaratish mumkin emas. Ammo, xalqlarning kelib chiqishi muammosini faqat yozma manbalar asosida o'rganish ham yetarli emas. Chunki, yozma manbalar, ayniqsa xalq tarixining etnogenez bosqichini ob'ektiv ilmiy o'rganishda har doim ham to'g'ri xulosalar chiqarishga imkon beravermaydi. Masalan, sobiq sovet hokimiyatining dastlabki yillarida o'zbek xalqining kelib chiqishi masalasida muammo yechimiga O'rta Osiyodagi etnosiyosiy vaziyat hisobga olinmay, mutlaqo turkparastlik nuqtai nazaridan yondashildi. Natijada, bunday yondashuvga zidli o'laroq, fanda "paniranistik" qarashni kelib chiqishiga olib keldi. O'sha kezlarda, xalqlarning kelib chiqishi haqidagi bu o'ta murakkab masala yechimiga islom aqidaparastlari ham aralashib, "bu vaqtinchalik dunyoda milliy etnoslar yo'q, faqat islom millati bor. Xalqlarni milliy tili va etnomadaniy o'ziga xosligiga qarab emas, balki diniy-ruhiy dunyosiga qarab millatini belgilamoq kerak," degan diniy kontseptsiya paydo bo'ldi. Afsuski, fanga zid bunday kontseptsiyalarning paydo bo'lishi, davr taqozasiga ko'ra, muammo yechimi bilan bog'liq fan tarmoqlarining rivojlanish darajasini zaifligidan dalolat berardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari.

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Тошкент, «Шарқ», 1998.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т., «Маънавият», 2008.
3. Каримов И.А. Танланган асарлар. -Т.1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17.- Тошкент, «Ўзбекистон», 1990-2009.
4. Каримов И.А. Биз бағри кенг ва ҳамдард халқмиз. “Андижон нашриёт матбаа” Маъсулияти чекланган жамият. 2010.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Т. Ўзбекистон. 2011.

II. Asosiy adabiyotlar.

6. “Avesto”. “Yasht” kitobi. O'zbek tiliga M. Ishoqov ilmiy-izohli tarjimalari. -Т.: Sharq, 2001.
7. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi.-Т.: Sharq, 2000.
8. Eshov B.J. O'rta Osiyo qadimgi shaharlari tarixi. O'quv qo'llanma.- Toshkent, 2006.
9. Eshov B.J. Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. Darslik. –Т., Fan va texnologiya, 2008.
- 10.Eshov B.J. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. O'quv qo'llanma.- Toshkent, Ma'rifat. 2009.
- 11.Eshov B.J. Sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. Toshkent, Zar qalam, 2004.
- 12.Eshov B. Qadimgi davlatchilik va urbanizatsiya (tarixiy lavhalar). –Т.: Mumtoz so'z, 2010. –B.108.
- 13.Murtazaeva R.X. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. –Т.: Akademiya, 2010.
- 14.Muhammadjonov A. Qadimgi Buxoro. -Т.: Fan, 1991.

15. Muhammadjonov A. Qadimgi Toshkent. -T.: Fan, 1988.
16. Sagdullaev A. Qadimgi O`rta Osiyo tarixi. O`quv qo`llanma –T.: Universitet, 2004.
17. Sagdullaev A. va boshqalar. O`zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. O`quv qo`llanma –T.: Akademiya, 2000.
18. Sobirov Q. Xorazm qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari (mil.avv. VI asrdan milodiy IX asrgacha). –T., Fan, 2009.
19. Shoniyozov K. O`zbek xalqining shakllanish jarayoni. -T., Fan, 2001.
20. O`zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari -T.: Sharq, 2001.
21. Xojaniyozov G`. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari (mil.avv. VI asrdan IV asrgacha). –T., 2007.

III. Internet saytlar.

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.ziyouz.com.
4. www.history.ru.